

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV MUXAMMADJON YUSUBJONOVICH

MULOQOTNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

10.00. 01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук
(DSc)**

The contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philology (DSc)

Mamajonov Muxammadjon Yusubjonovich

Muloqotning psixolingvistik tadqiqi.....3

Mamajonov Mukhammadjon Yusubjonovich

Psycholinguistic study of communication.....35

Мамажонов Мухаммаджон Юсубжонович

Психолингвистическое исследование общения69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....74

Ilvalar

Appendixes

Приложения.....76

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV MUXAMMADJON YUSUBJONOVICH

MULOQOTNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

10.00. 01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fil744 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziynet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi

Muminov Sidiqjon Mirsobirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yarasheva Nasiba Jumayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Huseyn Baydemir
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" 03 soat 8.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105 uy. Telefon: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz

(481) Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Telefon: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "15" mart da) 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



A. Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M. T. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

G. Z. Rozikova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda tilni undan foydalanuvchi inson omili bilan o‘zaro uyg‘unlikda, uning nutqiy faoliyati, ijtimoiy hamda ruhiy-hissiy holati bilan bog‘liqlikda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Natijada antropotsentrik paradigma nomi ostida birlashuvchi qator tilshunoslik yo‘nalishlari vujudga keldi hamda o‘z tadqiq metodologiyasi va tahlil usullariga ega bo‘ldi. Muloqot xulqiga doir tadqiqotlarning yaratilishi, psixolingvistika sohasiga oid izohli lug‘atlar tuzilishi antropotsentrik tilshunoslik va lug‘atshunoslik sohalari taraqqiyoti uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida muloqot xulqi, shaxs nutqi masalalari muhim tadqiqot obyekti sanaladi, chunki u nutq vaziyati, shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi, olamni milliy ko‘rish tarzi, diniy-mifologik qarashlari, ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir asosli xulosalar chiqarishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda muloqot xulqini tilshunoslikning so‘nggi yutuqlari asosida o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar muloqot xulqining psixolingvistik o‘ziga xosliklarini aniqlashda nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida psixolingvistika sohasida qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, hozirgacha muloqotning psixolingvistik xususiyatlari monografik planda o‘rganilmagan. Shu ma’noda muloqotni uning yaratuvchisi bo‘lgan inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish, uning psixolingvistik xususiyatlarini belgilash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish maqsadida “oliy ta’lim tizimida o‘zbek tili ilmiy maktablarining zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish”¹ kabi vazifalar belgilangan. Muloqot xulqi muammolarini tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, fanning eng so‘nggi yutuqlari asosida tadqiq etish, shu asosda o‘zbek tilshunosligini psixolingvistikaga doir ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish soha oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 20-dekabrdagi

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6084-сонли фармони // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами. 06/20/6084/1398

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon tilshunosligida kommunikatsiya nazariyasi, shaxs xususiyatlarining muloqot jarayoniga ta'siri, matnning psixolingvistik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Kornel universiteti, Indiana universiteti, Massachusetts Texnologiyalar instituti, Pensilvaniya universiteti (AQSh), Toronto universiteti (Kanada), Esseks universiteti, Reading universiteti, York universiteti (Buyuk Britaniya), Lund universiteti (Shvetsiya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Vladimir davlat universiteti (Rossiya), Luhansk Taras Shevchenko Milliy universiteti (Ukraina), Dehli universiteti (Hindiston), Semarang davlat universiteti (Indoneziya), O'zbekiston Milliy universiteti, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida muloqotning psixolingvistik xususiyatlari tadqiqiga oid izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: ilk marotaba psixolingvistikaga bag'ishlangan konferensiya o'tkazilgan hamda ushbu konferensiyadan so'ng lingvistik va psixologiya qo'mitasi tuzilgan (Kornel universiteti, AQSh), psixolingvistikaga bag'ishlangan yirik seminar o'tkazilgan hamda seminar natijalari asosida "Psixolingvistika: nazariya va tadqiqot muammolari" nomli kitob nashr etilgan (Indiana universiteti, AQSh), kar bolalarda ko'ptillilik; bilingvlik; ona tili va o'zlashtirilgan tilda tushunish; bilingv bolalar va kattalarda nutq mexanizmlari; bilingvlikda individual xususiyatlar ochib berilgan (Reading universiteti, Buyuk Britaniya), xitoy mandarin tilini ikkinchi til sifatida o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari; ingliz mavhum so'zlar leksikonida emotiv so'zlarning roli; erta yoshlarda nutq rivojlanishi; sud-tibbiy ekspertizasida ikkitillilik masalasi tahlil qilingan (York universiteti, Buyuk Britaniya), nutqning shakllari va funksiyalari; aniq va mavhum so'zlarni neyromodellashtirish; jamiyat me'yorlari va til mexanizmlari; bir tilli va ikkitillilarda lingvistik va nolingvistik kontekstda kognitiv nazorat; ikkitillilik masalalari aniqlangan (Pensilvaniya universiteti, AQSh)², semantik ma'lumotni o'zgartirish jarayonlarini tavsiflash; lingvistik ongning shakllanishi va faoliyati jarayonlari tahlil qilingan; nutqiy faoliyat nazariyasi yaratilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya), eksperimental fonetik laboratoriya yaratilgan, nutq va idrok jarayonlari tadqiq qilingan, bolalar nutqi va nutq patologiyalariga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya), kommunikativ

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://research.reading.ac.uk/psychlinglab/research-projects/phd-theses>; https://etda.libraries.psu.edu/?search_field=psycholinguistics; <https://link.springer.com/journal/10>; <https://www.sciencedirect.com/topics/computer-science/psycholinguistic-research>; <https://www.proquest.com/resultol/8AE550A71A2F45C8PQ/1> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

tilshunoslik masalalari yoritilgan (Vladimir davlat universiteti, Rossiya), kommunikatsiya nazariyasiga oid masalalar o'rganilgan (Luhansk Taras Shevchenko Milliy universiteti, Ukraina), shaxs xususiyatlarining muloqot jarayoniga ta'siri o'rganilgan (Dehli universiteti, Hindiston), til va shaxs xarakterining bog'liq xususiyatlari tadqiq etilgan (Semarang davlat universiteti, Indoneziya), gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi amalga oshirilgan; o'zbek bolalar nutqida ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida namoyon bo'ladigan leksik-semantik xususiyatlar tahlil qilingan (O'zbekiston Milliy universiteti), o'zbek tilidagi matnlarda shaxs ruhiy holatining ifodalanishi masalasi yoritilgan (O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti), til (nutq) vazifalari va muloqotning psixolingvistik aspekti, muloqot va munosabat: munosabat ifodalovchi vositalar, kommunikant "men"i va unga munosabat, nutq va odamning fiziologik holati, nutqning adresat fiziologiyasiga ta'siri, nutqning hasrat tipi va uning adresant fiziologiyasiga ta'siri kabi masalalar yoritilgan; bilingvizmning mohiyati, o'zga tilni mukammal egallash natijasida bilingv, ya'ni ikki til sohibi bo'lishning lingvopsixologik aspektlari tadqiq etilgan; murojaat ifodalanishining ekstralingvistik hamda psixolingvistik vosita va omillari tahlil qilingan; matnda shaxs xususiyatlarini ifoda etuvchi lingvistik, ekstralingvistik vositalar ajratib ko'rsatilgan; bolalarga xos matnlarning psixolingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan (Farg'ona davlat universiteti), nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning o'zbek tilining turli sath birliklari vositasida aks etishi yoritilgan (Andijon davlat universiteti), bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv va lingvopsixologik tadqiqi amalga oshirilgan (Samarqand davlat universiteti).

Jahon zamonaviy tilshunosligida psixolingvistika bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: behavioral neyrolingvistika, klinik psixolingvistika, kognitiv neyrolingvistika, rivojlanish psixolingvistikasi masalalari, nutq mexanizmlari, tilning inson ongida aks etishi, birinchi va ikkinchi tilni o'zlashtirish masalalari, nutq yaratish va tushunish, eksperimental psixolingvistika, erta yoshlarga doir til rivojlanishi, nutq yaratish va tushunish; nutq yo'qolishi va interferensiya masalalarini tadqiq etish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida Ch.E.Osgud, T.A.Sebeok, N.Xomskiy, R.Rieber, H.Vetter, V.fon Humboldt, J.F.Kess, D.Gabris-Barker, J.Fild, S.Budela, D.Carroll, U.Levelt, O.Ngozi, C.Ohaka, K.Diukar, G.Shteyntal, A.Chaer, M.Shxapatseva, A.T.Harley³, I.Ilyasov, L.Shcherba,

³Osgood C.E., Sebeok T.A. Psycholinguistics: a survey of theory and research problems // Journal of abnormal psychology, 1954. 49 4, Part 2, 1-203; Chomsky N. Syntactic structures. Second Edition (First edition was published in 1957). With an Introduction by David F. Lightfoot. Berlin and New York: Mouton de Gruyter, 2002. –117 p.; Chomsky N. "A Review of B. F. Skinner's Verbal Behavior" in Language, 1959. 35. – №1. – P. 26-58// <https://chomsky.info/1967>; Rieber R.W., Vetter H. Theoretical and Historical Roots of Psycholinguistic Research. In: Rieber, R.W. (eds) Psychology of Language and Thought. Studies in Applied Psycholinguistics. Springer, Boston, MA., 1980. – P. 3-49. https://doi.org/10.1007/978-1-4684-3644-0_1; Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества [Текст] / В. Гумбольдт // Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984; Kess J.F. On the developing history of psycholinguistics. Language Sciences, 1991. 13. – P. 1-20; Gabrys-Barker D. Psycholinguistics for Foreign Language Teachers: A Diachronic Perspective. Anglica Wratislaviensia, 2022. – P.151-169; Field J. Psycholinguistics: the key concepts. – London; New York: Routledge, 2004; Boudelaa S. Psycholinguistics // <https://www.researchgate.net/publication/272160770>; Carroll W. D. Psychology of Language. Fifth edition. – 2008; Levelt W. A History of Psycholinguistics: The Pre-Chomskyan Era (Oxford, 2012; online edn, Oxford Academic, 24 Jan. 2013). – P. 168-175. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199653669.001.0001>, accessed 24 Nov. 2023; Onwuka Ngozi F., Ohaka C.K. A Psycholinguistic Approach to Language Teaching and Learning: Problems and Prospects. The International Journal of

A.Leontyev, I.Gorelov, V.Krasnix, R.Frumkina, K.Sedov, I.G.Ovchinnikova, Y.Tarasov, O.V.Balyasnikova, N.Ufimseva, O.Fedorova⁴ kabilarning psixolingvistika yo'nalishiga doir salmoqli tadqiqotlari mavjud.

Psixolingvistika masalalari o'zbek tilshunosligida S.Mo'minov, M.Zokirov, Z.Akbarova, I.Azimova, A.Nurmonov, I.Hojaliyev, D.Xudoyberganova, M.Qurbonova, S.Qurbonova, Sh.Alpanova, D.Yuldasheva, N.Yarashovalarning⁵ tadqiqotlarida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati, muloqot xulqi masalasi I.Ibrohimov, B.O'rinboyev, E.Begmatov, H.Abdurahmonov, N.Mahmudov, S.Inomxo'jayev, R.Qo'ng'urov, S.Karimov, T.Qurbonov, B.Rahmatullayeva, T.Qudratov, Sh.Iskandarova, Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo'ldosheva, S.Mo'minov, Q.Rasulov, D.Rustamov kabi qator tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan⁶. Lekin

Humanities & Social Studies, 2019. 7 (9) // <https://doi.org/10.24940/theijhss/2019/v7/i9/HS1909-086>; Diukar K. Evolution of psycholinguistic theories in word-making processes // Scientific Journal of Polonia University, 2021, 46 3. DOI: <https://doi.org/10.23856/4602>; Chaer A. Psikolinguistik: Kajian Teori. Jakarta: PT Rineka Cipta Tell Journal, 2015. Volume 6, Number 1, April 2018 ISSN: 2338-8927 54; Шхапацева М.Х. Коммуникация в зеркале психолингвистики. – С.172-176//<https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikatsiya-v-zerkale-psiholingvistiki>; Harley A.T. The Psychology of Language: From Data to Theory. Second Edition. 2001.

⁴ Ильясов И. И. Эксперимент Дж. Миллера по проверке психологической реальности трансформационной модели (анализ методики). Психология грамматики. Леонтьев А. А., Рябова Т. В. (ред.). – М.: МГУ, 1968. – С.50-66; Щерба Л. В. О тройном аспекте языковых явлений и об экспериментах языкознания. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – С.24-39; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997; Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики. – М.: Лабиринт, 1998; Красных В.В. Основы психолингвистики и теории коммуникации. Лекционный курс. – М., 2001; Фрумкина Р.М. Психолингвистика. – М.: Академия, 2001; Седов К.Ф. (ред.). Возрастная психолингвистика: хрестоматия. – М.: Лабиринт, 2004; Овчинникова И.Г. Сахарный Л.В., Штерн А.С. // Вопросы психолингвистики, 2006. – №4. – С.32-36; Тарасов Е. Интервью с профессором Евгением Федоровичем Тарасовым. Московская психолингвистическая школа: истоки, становление, результаты // Вопросы психолингвистики, 2010. – №12. – С.15-19; Тарасов Е.Ф. «Я не мыслю себя в другой деятельности...» // Вопросы психолингвистики, 2015. – №24. – С.20-23; Балясникова О. В., Уфимцева Н. В. Стратегии актуализации категории эго в языковом сознании русских (по данным ассоциативного эксперимента) // Вопросы психолингвистики, 2018. – №4 (38). – С.14-33; Федорова О.В. Об экспериментальном синтаксисе и о синтаксическом эксперименте в языкознании. // Вопросы языкознания, 2013. – №1. – С.3-21; Федорова О. Отечественная психолингвистика: вчера, сегодня, завтра (субъективные заметки об изучении механизмов порождения и понимания речи) // Вопросы языкознания. 2020. – №6. – С.105-129.

⁵ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012; Хожалиев И. Психолингвистиканинг фан сифатида шаклланишига доир // ФарДУ. Илмий хабарлар. 2017. – №5. – Б. 71-74; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2014.; Курбонова С. Бадиий матнда шахс хусусиятларини ифодалаш: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Алпанова Ш. Нуткий фаолият жараёнидаги руҳий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2018; Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол.фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022; Yarashova N. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Samarqand, 2023.

⁶ Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972; Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. – Тошкент: Фан, 1979; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – № 4. – Б. 54-59; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981; Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982; Қўнғуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Нутқ маданияти асослари. – Самарқанд, 1985; Рахматуллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992; Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993; Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент, 1994; Мўминов С. Ўзбек мулоқот

shunga qaramay, o'zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlarda muloqotning psixolingvistik xususiyatlari maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining monografik tarzda o'rganilishini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek muloqot xulqi masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi muloqotni psixologik va lingvistik asoslarga ko'ra tadqiq qilish, uning bilish jarayonlari, hissiyot va shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida psixolingvistikaga doir amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilish, psixolingvistikaning tadqiq muammolarini belgilash;

muloqotning psixologik jihatdan tuzilishi va darajalarini belgilash; muloqot bosqichlarini psixolingvistik tahlil qilish;

intrapersonal muloqot, interpersonal muloqot va kvazimuloqotga xos xususiyatlarni aniqlash;

muloqotda o'zaro muvofiqlikning psixolingvistik tahlilini amalga oshirish;

muloqotning diqqat, idrok va xotira bilan bog'liq psixolingvistik jihatlarini yoritish;

shaxs individual psixologik xususiyatlarining muloqotga ta'sirini aniqlash;

hissiy-ruhiy holatlarning muloqot jarayoniga ta'sirini psixolingvistik tadqiq etish; affekt holatida nutqda yuz beradigan o'zgarishlarni tahlil qilish;

muloqotning psixolingvistik xususiyatlari yuzasidan so'rovnomaga o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi singari o'zbek adabiyoti vakillarining asarlaridagi personajlar nutqidan namunalar saralab olingan hamda shaxsiy kuzatuvlar asosida to'plangan materiallardan ham foydalanilgan.

Tadqiqotning predmetini muloqotning psixolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, statistik tahlil, shuningdek, kontekstual, stilistik, psixolingvistik, assotsiativ, kuzatish, kontent va diskursiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

muloqotni aynan psixolingvistik jihatdan tadqiq etish nutqiy faoliyatning inson omili, uning ruhiy va psixik holati bilan bog'liq tomonlarini yoritish imkonini berishi; psixolingvistik nuqtayi nazardan muloqotning quyi, o'rta va yuqori darajalari farqlanishi, har bir darajada mos ravishda lisoniy birliklardan foydalanilishi; muloqot psixolingvistik jihatdan muloqotdan avvalgi psixolingvistik bosqich, muloqot bosqichi va muloqotdan keyingi psixolingvistik bosqichlarga bo'linishi ko'rsatilgan;

muloqotning intrapersonal muloqot (shaxsning o'zi bilan ichki muloqoti), interpersonal muloqot (shaxsning boshqalar bilan muloqoti: monolog, dialog, polilog)

хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000; Расулов Қ. Ўзбек мuloqot хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Рустамов Д. Мuloqotнинг интралингвистик ва экстралингвистик омиллари ҳамда замонавий концепциялари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Андижон, 2021.

va kvazimuloqot (real suhbatdosh bilan xayoliy muloqot, xayoliy suhbatdosh bilan tasavvuriy muloqot, Yaratgan bilan muloqot) kabi turlarga bo'linishi ko'rsatilgan hamda bu muloqot turlarida qo'llaniladigan lisoniy vositalar aniqlangan;

kirish so'zlarni o'rinli qo'llash, ta'kid ma'nosini bildiruvchi lingvistik vositalardan foydalanish, suhbatdoshning gapini bo'lish, buyruq, so'roq gaplardan foydalanish, qat'iy ohangni qo'llash muloqotni boshqarishga yordam beruvchi vositalar sanalishi; muloqot jarayonida suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlariga moslashishga intilishi esa semantik reprezentatsiya, idrok, hissiyot, ruhiy bosim kabi psixik jarayonlar bilan bog'liq holda fonetik, intonatsion, leksik, morfologik, sintaktik qurilmalarni tanlash va nutqda qo'llashni talab etishi asoslangan;

diqqat psixik va mental jarayon sifatida til bilan bog'liq bo'lib, nutq yaratish va nutqni idrok qilishda ishtirok etishi hamda muloqotning samarali kechishini ta'minlashga xizmat qilishi ko'rsatilgan; muloqotda suhbatdoshni idrok etishda appersepsiya hamda ehtimoliy prognozlash hodisalari ham ishtirok etishi, tagma'no, presuppozitsiya, askiya, kinoya, termin, sotsiolekt, shevaga xos so'zlar, boshqa tillarga xos lisoniy birliklarni ishlatish muloqotda idrok jarayonini qiyinlashtiruvchi vositalar sanalishi; xotira hissiyot bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi va muloqotga ta'sir o'tkazishi dalillangan;

psixologik nuqtayi nazardan insonda uch xil "men": bola "men"i, ota-ona "men"i, ulg'aygan shaxs "men"i mavjud bo'lishi, bu uch xil "men" muloqotda so'zlovchi "men"iga mos lisoniy birliklarni tanlashida namoyon bo'lishi asoslangan; ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'zlar, undov so'zlar, to'liqsiz gaplar, so'roq gaplar takrori, ritorik so'roq gaplar, tushunarsiz nutq yaratish, kvazimuloqot va boshqalar ruhiy-hissiy holatning muloqotga ta'siri natijasida yuzaga kelishi; affekt holati ta'sirida so'roq gaplarning ko'p qo'llanilishi, kvazimuloqot yuzaga kelishi, nutq bilan bog'liq o'zgarishlar, xususan, duduqlanish paydo bo'lishi va yo'qolishi mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muloqotning psixolingvistik xususiyatlari bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o'zbek tilshunosligi uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi asoslangan;

nutq madaniyati, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmlingvistika va kognitiv tilshunoslik sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishda, mavjud o'quv adabiyotlarni mukammallashtirishda, o'quv qo'llanma, majmualar yaratishda hamda lug'atlar tuzishda xizmat qilishi ko'rsatilgan;

tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi hamda vaziyat kabilar bilan bog'liq holda o'rganish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, muloqotning psixolingvistik xususiyatlariga oid qo'yilgan muammo tasniflash, tavsiflash, statistik tahlil, shuningdek, kontekstual, stilistik, psixolingvistik, assotsiativ, kuzatish, kontent va diskursiv tahlil usullari asosida aniqlab berilganligi, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u psixolingvistika, o'zbek muloqot xulqiga bag'ishlangan

tadqiqotlar uchun nazariy ahamiyat kasb etadi. Chiqarilgan xulosalar muloqotning psixolingvistik xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitadi; psixolingvistika sohasidagi izlanishlar doirasini yanada kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan tilshunoslikka doir darslik, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish; filologiya yo'nalishlarida ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish, psixolingvistikaga doir lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muloqot xulqini psixolingvistik tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

muloqotning intrapersonal muloqot (shaxsning o'zi bilan ichki muloqoti), interpersonal muloqot (shaxsning boshqalar bilan muloqoti: monolog, dialog, polilog) va kvazimuloqot (real suhbatdosh bilan xayoliy muloqot, xayoliy suhbatdosh bilan tasavvuriy muloqot, Yaratgan bilan muloqot) kabi turlarga bo'linishi hamda bu muloqot turlarida qo'llaniladigan lisoniy vositalar tahliliga doir xulosalardan Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-sonli "European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G'arb tadqiqotlari" nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 8-avgustdagi 02-02/01-179-son ma'lumotnomasi). Natijada muloqot tushunchasini chuqur o'rganishda dissertatsiya ilmiy manba sifatida xizmat qilgan;

muloqotni aynan psixolingvistik jihatdan tadqiq etish nutqiy faoliyatning inson omili, uning ruhiy va psixik holati bilan bog'liq tomonlarini yoritish imkonini berishi; psixolingvistik nuqtayi nazardan muloqotning quyi, o'rta va yuqori darajalari farqlanishi, har bir darajada mos ravishda lisoniy birliklardan foydalanilishiga doir xulosalardan "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-20-sonli "Oila, mahalla va gender tengligi mavzusida badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan ("Oila va gender" ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 20-avgustdagi 01-09/2102-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari amaliy loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, to'plamlarning hamda til korpusi doirasida olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

kirish so'zlarni o'rinli qo'llash, ta'kid ma'nosini bildiruvchi lingvistik vositalardan foydalanish, suhbatdoshning gapini bo'lish, buyruq, so'roq gaplardan foydalanish, qat'iy ohangni qo'llash muloqotni boshqarishga yordam beruvchi vositalar sanalishi; muloqot jarayonida suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlariga moslashishga intilishi esa semantik reprezentatsiya, idrok, hissiyot, ruhiy bosim kabi psixik jarayonlar bilan bog'liq holda fonetik, intonatsion, leksik, morfologik, sintaktik qurilmalarni tanlash va nutqda qo'llashni talab etishiga doir xulosalardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 22-avgustdagi 1-04/110-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy manbalari boyitilib, lug'atlarning mukammallashuviga erishilgan;

muloqot psixolingvistik jihatdan muloqotdan avvalgi psixolingvistik bosqich, muloqot bosqichi va muloqotdan keyingi psixolingvistik bosqichlarga bo'linishiga

doir xulosa va tavsiyalardan 2021-2023-yillarda “Musika va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 22-avgustdagi 1-04/109-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilgan;

diqqat psixik va mental jarayon sifatida til bilan bog‘liq bo‘lib, nutq yaratish va nutqni idrok qilishda ishtirok etishi hamda muloqotning samarali kechishini ta’minlashga xizmat qilishi; muloqotda suhbatdoshni idrok etishda appersepsiya hamda ehtimoliy prognozlash hodisalari ham ishtirok etishi, tagma’no, presuppozitsiya, askiya, kinoya, termin, sotsiolekt, shevaga xos so‘zlar, boshqa tillarga xos lisoniy birliklarni ishlatish muloqotda idrok jarayonini qiyinlashtiruvchi vositalar sanalishi; xotira hissiyot bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi va muloqotga ta’sir o‘tkazishi xususidagi xulosalardan Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” faoliyatida samarali foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 13-sentabrdagi 03/01/19-1310-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari barkamol shaxsni tarbiyalash va ular ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirish masalalarida muhim asos bo‘lib xizmat qilgan;

psixologik nuqtayi nazardan insonda uch xil “men”: bola “men”i, ota-ona “men”i, ulg‘aygan shaxs “men”i mavjud bo‘lishi, bu uch xil “men” muloqotda so‘zlovchi “men”iga mos lisoniy birliklarni tanlashida namoyon bo‘lishiga doir xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining xalqaro adabiy aloqalarni mustahkamlash, adabiy muloqot va targ‘ibot tadbirlarida, davra suhbatlarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 18-sentabrdagi 01/03/823-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari yoshlarning muloqotni to‘g‘ri tashkillash borasidagi bilimlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etgan;

ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdor so‘zlar, undov so‘zlar, to‘liqsiz gaplar, so‘roq gaplar takrori, ritorik so‘roq gaplar, tushunarsiz nutq yaratish, kvazimuloqot va boshqalar ruhiy-hissiy holatning muloqotga ta’siri natijasida yuzaga kelishi, affekt holati ta’sirida so‘roq gaplarning ko‘p qo‘llanilishi, kvazimuloqot yuzaga kelishi, nutq bilan bog‘liq o‘zgarishlar, xususan, duduqlanish paydo bo‘lishi va yo‘qolishi mumkinligi haqidagi xulosalardan 2023-2024-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 21-avgustdagi 04-36-247-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlar yurtdoshlarimiz, xususan yosh avlodning muloqotning psixolingvistik xususiyatlari haqidagi bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatysidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy

natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 245 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muloqotni psixolingvistik tadqiq qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Uning birinchi fasli **“Psixolingvistika jahon va o‘zbek tilshunosligida rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida”** deb nomlangan. **“Psixolingvistika”** termini ilk bor amerikalik olim Y.Kantor tomonidan tilga olingan. Uning shogirdi N.Pronkoning maqolasida psixolingvistika tilga oid hodisalarni psixologik nuqtayi nazardan tadqiq etuvchi tarmoqlararo yo‘nalish sifatida e‘tirof etilgan⁷. So‘ng ushbu nazariya Ch.E.Osgud va T.A.Sebeoklar tomonidan rivojlantirilgan. 1951-yilda Kornel universiteti ijtimoiy fanlar tadqiqot kengashi tomonidan ilk marotaba psixolingvistikaga bag‘ishlangan konferensiya o‘tkazilgan. Ushbu konferensiyadan so‘ng lingvistika va psixologiya qo‘mitasi tuzilgan hamda ushbu qo‘mitaga Ch.E.Osgud rahbar etib tayinlangan. Konferensiyadan so‘ng psixolingvistika sohasida ikki muhim qadam amalga oshirilgan. Ulardan birinchisi 1953-yilda Indiana universitetida yirik seminar o‘tkazilgani bo‘lsa, ikkinchisi seminar natijalari asosida **“Psixolingvistika: nazariya va tadqiqot muammolari”** nomli kitobning nashr etilishi bo‘ldi⁸.

Psixolingvistika sohasiga N.Xomskiy tomonidan asos solingan generativ tilshunoslik yo‘nalishi ham ta‘sir o‘tkazdi. Generativ tilshunoslikda ichki bilimga urg‘u beriladi, bunda insonlarning til bilan nima qilish mumkinligi, tilni qanday o‘zlashtirib, uni uzoq muddat xotirada saqlashi nazarda tutiladi. Bu orqali til birliklarini struktural tilshunoslik asosida tahlil qilish va tavsiflashga bo‘lgan e‘tibordan voz kechish zarurligi e‘tirof etildi⁹. 1959-yilda N.Xomskiy B.Skinnerning kitobiga taqriz yozadi, bu taqriz esa kitobning o‘zidan-da mashhur bo‘lib ketadi. Mazkur taqrizda N.Xomskiy bixeviorizm tabiiy tilni tadqiq qilish, o‘rganish uchun o‘jiz ekanini bayon qiladi va o‘zining transformatsion yoki generativ grammatika nazariyasini taklif qiladi. Transformatsion grammatika tilning qurilishi masalalari va insonlarning til haqidagi bilimlarini o‘zida mujassam etadi. Bu nazariyani tekshirish

⁷ Pronko N.H. Language and psycholinguistics: a review. Psychological Bulletin, 1946, 43 (3). – P. 189-239. doi:10.1037/h0056729

⁸ Osgood C.E., Sebeok T.A. Psycholinguistics: a survey of theory and research problems. Journal of abnormal psychology, 1954. 49 4, Part 2. – P. 1-203.

⁹ Chomsky N. Syntactic structures. Second Edition (First edition was published in 1957). With an Introduction by David F. Lightfoot. Berlin and New York: Mouton de Gruyter, 2002.

bo'yicha psixolingvistik tajribalarning o'tkazilishi psixolingvistikaning rivojlanishiga hissa bo'lib qo'shildi¹⁰. Shunga asosan, D.Kerrol psixolingvistikaning shakllanishi va taraqqiy topishini quyidagicha davriylashtiradi: 1) Yevropa erta psixolingvistikasi – 1879-yil V.Vundt tomonidan ilk psixologik laboratorianing yaratilishi bosqichi; 2) 1920-yillardan boshlab AQShda bixeviorizm va verbal xatti-harakatlar g'oyalari hukmronligi bosqichi; 3) keyingi davr psixolingvistikasi – 1951-1953-yillar seminarlaridan keyingi ishlar, N.Xomskiyning tadqiqotlari, transformativ grammatikaning yaratilishi, “Xomskiy revolyutsiyasi” amalga oshirilgan bosqich; 4) hozirgi davr psixolingvistikasi – sohalararo tadqiqotlarning amalga oshirilishi, bu davr so'nggi 15-20 yilliklarni qamrab oladi¹¹. K.Diukar ushbu yo'nalishga tamal toshi XIX asrning boshlaridayoq qo'yilganini e'tirof etadi. Olima tomonidan V.fon Gumboldtning til va nutqni ajratishga intilishining o'ziyoq tilning tafakkurga aloqadorligini belgilashga qaratilgan, degan qarashlar keltiriladi¹². Darhaqiqat, V.Gumboldtning qarashlaridanoq tilga psixolingvistik yondashuvning asoslarini ko'rish mumkin. Til va tafakkurning o'zaro aloqadorligi, til va nutqning ajratilishi, nutqning yaratilishi va qabul qilinishidagi qarama-qarshilik hamda bog'liqliklar psixolingvistikaning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, deyish mumkin. Xususan, nutqni yaratishdagi muallifning psixologik holati, kayfiyati va retsiptentning psixologik holati masalasi muloqotning psixolingvistik jihatlarini belgilashga asos bo'ladi¹³.

U.Levelt esa psixolingvistikaning tarixi XVIII asrning oxiriga borib taqalishini ta'kidlaydi: “Garchi psixolingvistlarning ko'pchiligi ushbu yo'nalish tarixini 1950-1960-yillar oxiridagi N.Xomskiy “kognitiv inqilob”idan boshlangan, deb hisoblasalar ham, empirik psixolingvistika tarixi aslida XVIII asr oxiriga borib taqaladi. Psixolingvistikaning to'rtta tarixiy ildizi bor, ular XIX asrning oxiriga kelib o'zaro birlashadi. Bu vaqtga kelib psixolingvistika yoki til psixologiyasi deb nomlanadigan fan yaratildi. Bu ildizlarning birinchisi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik paradigmasi bo'lib, u tilning kelib chiqishi masalasiga psixologik jihatdan yondashgan. Ikkinchi ildiz esa miya va tilni o'rganish edi, bu borada F.Gall, Broka va Vernikelarning fikrlari diqqatga sazovordir. Uchinchi ildiz Russoning “Emili” asarida paydo bo'lgan bola rivojlanishiga kundalik yondashuv edi. To'rtinchi ildiz Frensis Dondersning mental xronometriyasidan kelib chiqqan til va nutqni qayta ishlashga eksperimental laboratoriya asosida yondashuvdan iborat. V.Vundt o'zining 1900-yilgi “Die Sprache” asarida ushbu to'rtta yondashuvni birlashtirgan. Psixolingvistikaning ushbu to'rtta ildizi deyarli bir paytda, biroq bir-biridan ancha farqli doiralarda XX asrgacha rivojlangan”¹⁴.

Rus tilshunosligida Peterburg va Moskva psixolingvistik maktablari e'tirof etiladi. Peterburg psixolingvistik maktabining tamal toshi Boduen de Kurtene tomonidan qo'yilgan, keyinchalik uning shogirdi L.Shcherba tomonidan davom

¹⁰ Chomsky N. “A Review of B.F.Skinner's Verbal Behavior” in *Language*, 1959. 35. – №1. – P. 26-58 // <https://chomsky.info/1967>. (murojaat sanasi: 23.04.2024).

¹¹ Carroll W. David. *Psychology of Language*. Fifth edition, 2008. – P. 9-15.

¹² Diukar K. Evolution of psycholinguistic theories in word-making processes // *Scientific Journal of Polonia University*, 2021, 46 3. DOI: <https://doi.org/10.23856/4602>

¹³ Bu haqda qarang: *Психолингвистика: Учебник для вузов / Под ред. Т.Н. Ушаковой*. – М.: ПЕР СЭ, 2006. – С.37-41.

¹⁴ Levelt W. *A History of Psycholinguistics: The Pre-Chomskyan Era* (Oxford, 2012; online edn, Oxford Academic, 24 Jan. 2013). – P. 168-175. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199653669.001.0001>, accessed 24 Nov. 2023.

ettirilgan. L.Shcherba Leningrad fonologik maktabi asoschisi sifatida eksperimental fonetik laboratoriyani yaratdi. U tilshunoslikda tajribalar o'tkazish muhimligini e'tirof etib, tirik tillarni o'lik tillar tamoyillari asosida tadqiq qilmaslik zarurligini, tirik tillarni eksperimentlar natijasida qo'lga kiritilgan dalillar asosida baholash zarurligini ta'kidlaydi¹⁵. Peterburg psixolingvistik maktabining rivojida L.Saxarniy tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi¹⁶.

Moskva psixolingvistik maktabi rivoji I.Ilyasov, A.Leontyev, Y.Tarasov, R.Frumkina, K.Sedov, I.Gorelov, O.V.Balyasnikova, N.Ufimtseva, O.Fedorova¹⁷ kabilarning tadqiqotlari bilan bog'liq.

O'zbek tilshunosligida psixolingvistika masalalari S.Muminov, M.Zokirov, Z.Akbarova, I.Azimova, A.Nurmonov, I.Hojaliyev, D.Xudoyberganova, M.Qurbonova, S.Qurbonova, Sh.Alpanova, D.Yuldasheva, N.Yarashovalarning¹⁸ tadqiqotlarida yoritilgan.

¹⁵ Щерба Л.В. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – С.24-39.

¹⁶ Bu haqda qarang: Овчинникова И.Г. Сахарный Л.В., Штерн А.С. // Вопросы психолингвистики, 2006. – №4. – С.32-36; Федорова О. Отечественная психолингвистика: вчера, сегодня, завтра (субъективные заметки об изучении механизмов порождения и понимания речи) // Вопросы языкознания. 2020. – №6. – С.105-129.

¹⁷ Ильясов И.И. Эксперимент Дж. Миллера по проверке психологической реальности трансформационной модели (анализ методики). Психология грамматики. Леонтьев А.А., Рябова Т.В. (ред.). – М.: МГУ, 1968. – С.50-66; Леонтьев А. А. О работе проблемной группы психолингвистики Института языкознания АН СССР. Психологические и психолингвистические проблемы владения и овладения языком. Леонтьев А.А., Рябова Т.В. (ред.). – М.: МГУ, 1969; Леонтьев А.А. (ред.). Основы теории речевой деятельности. – М.: Наука, 1974; Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М., 1999; Леонтьев Д.А., Леонтьева А.А., Тарасов Е.Ф. Алексей Алексеевич Леонтьев: научная биография // Вопросы психолингвистики, 2016. – №27. – С.10-17; Тарасов Е.Ф. Предисловие // Вопросы психолингвистики, 2006. – №4. – С.4; Тарасов Е. Интервью с профессором Евгением Федоровичем Тарасовым. Московская психолингвистическая школа: истоки, становление, результаты // Вопросы психолингвистики, 2010. – №12. – С.15-19; Тарасов Е.Ф. «Я не мыслю себя в другой деятельности...» // Вопросы психолингвистики, 2015. – №24. – С.20-23; Фрумкина Р.М. Цвет, смысл, сходство: Аспекты психолингвистического анализа. – М.: Наука, 1984; Фрумкина Р.М. Предисловие // Психолингвистика. Сборник статей. Составление и общая редакция А.М. Шахнаровича. (сост.). – М.: Прогресс, 1984; Фрумкина Р.М. Психолингвистика. – М.: Академия, 2014; Седов К.Ф. (ред.). Возрастная психолингвистика: хрестоматия. – М.: Лабиринт, 2004; Седов К.Ф. (ред.). Общая психолингвистика: хрестоматия. – М.: Лабиринт, 2004; Седов К.Ф. Дискурс и личность. Эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004; Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – М.: Лабиринт, 2007; Седов К.Ф. Онтопсихолингвистика: становление коммуникативной компетенции человека. – М.: Лабиринт, 2008; Горелов И. Н. Невербальные компоненты коммуникации. – М.: Наука, 1980; Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики. – М.: Лабиринт, 1998; Баясникиова О.В., Уфимцева Н.В. Стратегии актуализации категории эго в языковом сознании русских (по данным ассоциативного эксперимента) // Вопросы психолингвистики, 2018. – №4 (38). – С.14–33; Федорова О.В. Об экспериментальном синтаксисе и о синтаксическом эксперименте в языкознании // Вопросы языкознания, 2013. – №1. – С.3-21; Федорова О. Отечественная психолингвистика: вчера, сегодня, завтра (субъективные заметки об изучении механизмов порождения и понимания речи) // Вопросы языкознания. 2020. – №6. – С.105-129.

¹⁸ Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012; Ҳожаалиев И. Психолингвистиканинг фан сифатида шаклланишига доир // ФарДУ. Илмий хабарлар, 2017. – №5. – Б. 71-74; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Курбонова М. Ўзбек болалар нутки лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2014.; Курбонова С. Бадиий матнда шахс хусусиятларини ифодалаш: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Алпанова Ш. Нуткий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2018; Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022; Yarashova N. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Samarqand, 2023.

Psixolingvistikaning kelib chiqishi bilan bog'liq fikrlar xilma-xil bo'lganidek, ushbu yo'nalishning tadqiqot doirasi va qamrovi masalasida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, J.Fild psixolingvistika yo'nalishi quyidagi masalalar bilan shug'ullanishini qayd etadi: 1. Til jarayonlari. O'qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish ko'nikmalari, tilning xotira bilan aloqasi masalasi. 2. So'z boyligi va undan foydalanish. Ongda so'zlarni saqlash, kerak bo'lganda ulardan tanlab foydalana olish qobiliyati. 3. Tilni o'zlashtirish. Bunda chaqaloq ona tilisini o'zlashtirishi masalasi ko'zda tutiladi. 4. Maxsus holatlar. Ushbu holatlarda jismoniy noqisliklar (karlik, ko'zi ojizlik), miyaga shikast yetishi bilan bog'liq holatlar (disleksiya, afaziya kabi tibbiy holatlar)ning tilga va nutqqa ta'siri anglashiladi. 5. Ong va til munosabatlari. Tilning inson ongidan joy olishi, rivojlanishi, tilning faqat insonlargagina xos hodisa ekanligi masalasi. 6. Ikkinchi tilni o'zlashtirish va uni qo'llash masalalari¹⁹.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "Muloqot va u bilan bog'liq nazariy qarashlar tahlili" deb nomlangan. Lingvistikada muloqot va kommunikatsiya tushunchalari o'zaro ma'nodosh terminlar sifatida qo'llaniladi. Biroq psixologiyaga doir adabiyotlarda bu tushunchalar o'zaro farqlanadi. Kommunikatsiya, sodda qilib aytganda, o'zaro aloqa almashish jarayonidir. Kommunikatsiya jo'natuvchi tomonidan qabul qiluvchiga biror vosita (tovush, yozma belgilar, tana harakatlari va b.) yordamida yuborilgan xabardir²⁰. Kommunikatsiya unda ishtirok etuvchilar kimligiga qarab insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya, hayvonlar o'rtasidagi kommunikatsiya, jonsiz buyumlar, ya'ni kompyuterlar o'rtasidagi kommunikatsiya kabi turlarga ajratiladi²¹. Insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya o'zaro axborot yetkazish bilan bir qatorda, his-tuyg'u izhor qilish, munosabat bildirish kabi funksiyalarga ham asoslanib, verbal va noverbal shakllarda ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, insonlarga xos kommunikatsiya uchun "muloqot" terminining qo'llanilishi asosidek ko'rinadi. Tilshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarda muloqotning belgisi va dinamik xarakterga ega, kontekst hamda madaniyat bilan aloqador, keng tarqalgan interaktiv jarayon ekanligi ta'kidlangan. Tilshunoslar va gumanitar fanlar olimlari tomonidan muloqotning turlicha modellari yaratilgan. Dissertatsiyada Aristotel, G.Lesvel, Shennon, Viver, U.Shram, D.Barnlund, J.Jekson²² kabi olimlar tomonidan yaratilgan muloqot modellari tahlil qilingan.

Uchinchi fasl "Muloqotning psixologik tuzilishi, tamoyillari va darajalari" deb nomlangan. Muloqot ham tilshunoslik, ham psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Psixologlar muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish),

¹⁹ Field J. Psycholinguistics: the key concepts. – London; New York: Routledge, 2004.

²⁰ Rosengren K. E. Communication: An Introduction. Sage Publications, 2000.

²¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Communication> (murojaat sanasi: 15.05.2024).

²² Rosenfield L.W. (1 December 2011). III. An Aristotelian Theory of Communication. Aristotle and Information Theory: A Comparison of the Influence of Causal Assumptions on two Theories of Communication. Walter de Gruyter. – P. 61-62. ISBN 9783110813616.; Lasswell H. The Structure and Function of Communication in Society / Harold Lasswell // The Communication of Ideas. – New York: Institute for Religious and Social Studies, 1948. – P. 37-51; Sereno K.K. Foundations of Communication Theory / Kenneth K. Sereno, David C. Mortensen. – New York: Harper & Row, 1970. – P. 114-129; Stepykina T.V., Mygovych I.V. Theory of Communication: Interdisciplinary Approach: Manual for Master Students. State Institution Luhansk Taras Shevchenko National University. – Luhansk: Luhansk Taras Shevchenko National University Press, 2012; Schramm W. How Communication Works / Wilbur Schramm // The Process and Effects of Communication. – Urbana: University of Illinois Press, 1954. – P. 3-26.; Barnlund Dean C. (5 July 2013). A Transactional Model of Communication. In Akin, Johnnye; Goldberg, Alvin; Myers Gail; Stewart, Joseph (eds.). Language Behavior. De Gruyter Mouton. – P. 43-61. doi:10.1515/9783110878752.43; https://en.wikipedia.org/wiki/Barnlund%27s_model_of_communication; Jackson J. Introducing Language and Intercultural Communication (2nd ed.). Routledge. 2019. <https://doi.org/10.4324/9781351059275>.

interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshirilishini ta’kidlaydilar²³. Muloqotning kommunikativ jihati muloqotda ishtirok etayotgan so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvida namoyon bo‘ladi. Muloqotning interaktiv jihati muloqotda ishtirok etuvchilarning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida baholanishi mumkin. So‘nggi – perseptiv jihat esa muloqotda ishtirok etuvchi so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro bir-birlarini tushunishi, idrok etishi bilan bog‘liq.

Nazariy adabiyotlarda muloqotning 7 ta tamoyili keltirib o‘tiladi: 1) har qanday muloqotdan ko‘zlangan maqsad bor; 2) muloqot davomiydir; 3) muloqot xabarlarini ongli ravishda turlicha bo‘ladi, bu muloqotda uzatilayotgan xabarlar to‘satdan paydo bo‘lishi hamda ma’lum qoliplarga asoslangan bo‘lishini anglatadi; 4) muloqot bog‘langan bo‘ladi, bu har qanday muloqotda munosabatlarning ikki xil darajasi, ya’ni samimiylik va nazorat ifodalanishini bildiradi; 5) muloqotda madaniyatning ta’siri bor; 6) muloqot xulqiga xos qonun-qoidalar mavjud; 7) muloqot o‘rganiladi, o‘zlashtiriladi²⁴.

Muloqot jarayonida bilim uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: muloqot obyekti haqidagi bilim; muloqot qilayotgan kishi haqidagi bilim; muloqot vositasi (til) bo‘yicha bilim. Mana shu uch sifatdan biri bo‘lmasa, muloqot sifatli kechmaydi hamda suhbatdoshning madaniy shaxs ekani haqida tasavvur paydo bo‘lmaydi²⁵.

Psixologlar tomonidan muloqotning uch darajasi borligi farqlanadi. Bular quyi, o‘rta va yuqori darajalar hisoblanadi²⁶. Muloqotning quyi darajalari sifatida primitiv, manipulyativ va standartlashgan daraja farqlanadi. Primitiv darajada suhbatdoshga qiziqish bildirilmaydi, unga xuddi buyumdek munosabatda bo‘linadi. Agar suhbatdosh buyum singari kerak bo‘lsa, uni egallashga, keraksiz bo‘sa, uni uloqtirib tashlashga harakat qilinadi.

... Bir tomonda do‘xtirlar. Bir tomonda yarim yalang‘och “prizivnik”lar.

Endi senlar odam emas, hammang bir xil “prizivnik”san.

Quloq solib tursang, antiqa savol-javoblarni eshitasan...

– *Shikoyating bormi?*

– *Bor. Boshim og‘riydi. Kechalari uxlamay chiqaman, do‘xtir!*

– *Mening boshim yorilib ketay deyapti! O‘t! Yaroqli!*

– *Sen nima deysan?*

– *Jigarim kasal. Sariq bo‘lganman.*

– *Qachon?*

– *Uch yil avval.*

– *Men yaqinda gepatit bo‘lib, gospitaldan chiqdim. Yaroqli! Sleduyushiy!...*

(O‘.Hoshimov, “Tushda kechgan umrlar”, 75-bet)

Primitiv darajadagi muloqotda, asosan, so‘zlovchi o‘z fikrini hech qanday qarshiliklarsiz o‘tkaza olishi xarakterlidir. Yuqoridagi muloqotda shifokor ko‘rikka kelgan chaqiriluvchilarni tuzuk-quruq tinglamaydi ham, ularning kasalliklariga e’tibor ham bermaydi. Asosiy maqsad – asarda ta’kidlanganidek, “planni, odam

²³ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent, 2006. – B.5.

²⁴ Iagniyuk I., Ponomaryov I., Osypenko A.A. Communication Psychology. – Kharkiv, 2016.

https://www.researchgate.net/publication/310450563_Book_Communication_Psychology

²⁵ Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019. – B.11.

²⁶ Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent, 2006. – B.101.

planini to'ldirish". Shu sababdan ham shifokorning chaqiriluvchilarga buyumdek muomala qilishi primitiv darajadagi muloqotni ko'rsatadi.

Muloqotning o'rta darajasi konvensional daraja deb nomlanadi, bu darajada suhbatdoshga nisbatan ochiqlik ko'zga tashlanadi. Bu ochiqlik faqat suhbat ro'y berayotgan vaziyat uchungina xosligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bunday muloqot suhbatdosh uchun qayg'urish, uning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish asosida yuzaga keladigan muloqotdir.

Muloqotning yuqori darajasi ishchan daraja, o'yinli daraja hamda ma'naviy darajaga ajratiladi. Muloqotning quyi, o'rta va yuqori darajalari muloqotda ishtirok etuvchilarning suhbatga ruhiy tayyorgarliklari, qo'llanadigan konstruksiyalar, lisoniy vositalarning tanlanishi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida muloqotning psixolingvistik jihatlarini yanada aniqroq o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Dissertatsiyada nazariy fikrlarni asoslash maqsadida o'rni bilan so'rovnoma natijalari ham bayon etilgan.

"Muloqot murakkab psixolingvistik jarayon sifatida" deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi fasli muloqot bosqichlarining psixolingvistik talqiniga bag'ishlangan. Muloqotni psixolingvistik jihatdan muloqotdan avvalgi, muloqot paytidagi va muloqotdan keyingi psixolingvistik bosqich kabi turlarga ajratish mumkin. Muloqotdan avvalgi psixolingvistik bosqich muloqotga kirishishdan avval kishining psixologik va lingvistik jihatdan tayyorgarlik bosqichi sifatida inson ongida zarur jumlar tuzilishi, so'zlar tanlanishi, qanday ohangda talaffuz qilish belgilanishi kabilarni o'z ichiga oladi. Albatta, bunda nafaqat ong bilan bog'liq jarayonlar, ruhiyat va hissiyot bilan bog'liq jarayonlar ham bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Inson kim bilan muloqotga kirishayotgani, ichki ta'sir birliklari: millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari va tashqi ta'sir birliklari: muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit muloqotga tayyorgarlik bosqichi uchun ahamiyatli sanaladi. Muloqotdan avvalgi psixolingvistik bosqichda psixologik va lingvistik assotsiatsiyalar, shuningdek, idrok bilan bog'liq appersepsiya va ehtimoliy prognozlash jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega.

...Kechqurun hamma dasturxon atrofida to'plangan payti, arzanda nevaram bilan gaplashib o'tirib, yana o'sha gap esimga tushdi.

– *Asal qizim, mening ismim nimaydi? – deb so'radim.*

– *Sizning ismingiz – bobo, – dedi u.*

– *Balli! – deb boshini siladim. – Endi sen ayt-chi, farishta bolam, Saidqul degan ism yaxshimi, Normo'min degan ismimi?*

Shu yerda sal g'irromlik qilganimni payqadim. Negaki, ishdan bo'shagan paytlarda nevaralarni ustimga mindirib, goh tik, goh tizzada "nortuya" bo'lib lo'killaydigan odatim bor. O'sha narsa esida turgan ekan, nevaram o'ylanib-netib o'tirmadi, rostini aytdi:

– *Normo'min yaxshi, bobojon.*

– *Saidqul-chi?*

– *Saidqul – yomon.*

– *Bekoringni aytibsan, – deya dashnom berdi buvisi. – Bobong aljib qopti, Normo'min emas u, uning oti – Saidqul!*

– *Siz o'zingiz – Saidqul! – dedi nevaram xafa bo'lib. Bobom Saidqul emas, bobom – Normo'min! Normo'min – yaxshi!.. (Murod Muhammad Do'st, "Lolazor", 199-bet)*

O‘z ismini Saidquldan Normo‘minga o‘zgartirmoqchi bo‘lgan qahramon nevarasidan foydalanadi. U nevarasining ongida mavjud bo‘lgan psixologik assotsiatsiyadan foydalangan holda, muloqotda o‘z maqsadiga erishishni ko‘zda tutadi. Nevarasining ongida “nortuya” tushunchasi mavjud bo‘lib, u – yaxshi, chunki bobosi nortuya bo‘lib uni ustiga mindiradi, bu, albatta, qizaloqqa juda yoqadi. Normo‘min ismida ham “nor” qismining mavjudligi sababli aynan shu psixologik assotsiatsiyadan so‘z o‘yini qilishda foydalangan Saidqul buni avvaldan bilgan holda muloqotga tayyorgarlik ko‘radi va muloqotdan ko‘zlangan maqsadiga erishadi, nabirasi Normo‘min ismining Saidquldan yaxshiroq ekanini aytadi.

Muloqot paytidagi psixolingvistik bosqich suhbatdoshlarning tafakkur, ruhiyat va hissiyoti bilan bog‘liq psixologik holati hamda lingvistik jarayonlar bilan aloqador. Inson ongida amalga oshayotgan jarayonlar uning tiliga ko‘chib, verballashadi.

– *Meros kerakmas menga! – deb battar xo‘rozlandi Avvalbek. – Mayli, merosni butunicha Olloyorga qoldiravering!*

Yaxshiboyev, ichini it tirnaganday, yomon bezovta bo‘ldi. Vasiyatning ovozi bungayam yetib boribdi, deb o‘yladi, keyin bu anavi manjalaqi sobiq kelinga aytgan, keyin sobiq kelin bunga yaxshilab saboq o‘rgatganki, mayli, rozi bo‘l, hamma merosni Olloyor olaqolsin, deb!.. Ya‘niki, unda Tamara hamma narsadan mahrum bo‘ladi, unda Tamara ketadi, keyin men kelaman, deb o‘rgatgan, Olloyor – ammamning buzog‘i, Olloyor – vijdoni bor ahmoq, ulushingni o‘zingga qaytarib beradi, deb o‘rgatgan, qanjiq! Dog‘uli yosuman, buning ham makri sobiq qaynonasining makridan kam emas. Yo‘q, yosumanlarga qoladigan merosim yo‘q mening!... (Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”, 423-424-bet)

Inson muloqot qilayotgan paytda ham o‘ylaydi, fikrlaydi, nima javob qaytarsam ekan, degan holda miya to‘xtovsiz harakatlanadi. Agar to‘g‘ri lisoniy birliklar, kerakli ohang tanlana olsa, muloqot muvaffaqiyatli kechadi. Aksincha bo‘lsa, muloqot uzilib qolishi yoxud ko‘zlangan maqsadga erishmaslik mumkin. Yaxshiboyev o‘g‘lining so‘zlarini tinglab, xayolan fikrlaydi, javob berishga tayyorlanadi, ong, ruhiyat va til birligida o‘z fikrini ifoda etadi. Buning natijasida esa vaziyatdan chiqib keta oladi, muloqotni muvaffaqiyatli yakunlaydi:

– *Mayli, Avvalbek, men roziman, – dedi Yaxshiboyev. – Muhabbatni tanlab to‘g‘ri qilibsan. Tamarani o‘ylab qayg‘uraning ham durust. Birinchi xotiningga ham rahmat aytib qo‘y, juda oliyjanob ekan. Merosni Olloyorga qoldiraman. Lekin Tamarani bolasi bilan xor qilib qo‘ysak ham bo‘lmaydi, yaxshisi, sening ulushingni Tamara bilan bolasiga vasiyat qilaman. Zora shu arziyas narsa uning yarasiga malham bo‘lsa... Shu gaplarni to‘ng‘ich kelinga borib aytsang. Menimcha, uyam ishimizni ma‘qul topadi. Mayli, endi bor, bolam, borib xushxabarni yetkaz, ajabmaski, suyunchiga sobiq va bo‘lajak kelinimiz devziradan osh damlab kelsa!..*

Avvalbek indamay o‘rnidan turdi. Ahvoli ancha qyanchli edi. Nedir demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi, lekin aytolmadi (Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”, 424-bet).

Muloqot psixolingvistik jihatdan xayrlashuv yoxud xotima bilan yakunlanmaydi. Bo‘lib o‘tgan muloqot inson ongida tahlil qilinadi. Bu tahlillar muloqot ta‘sirida amalga oshirilib, keyingi muloqot uchun tayyorgarlik bosqichi vazifasini ham bajarishi mumkin. Shuningdek, suhbatdosh bilan muloqotda aytilmagan gaplar, fikrlar kvazimuloqot shaklida davom ettirilishi ham mumkin.

Ikkinchi fasl “Intrapersonal, interpersonal va kvazimuloqotga xos xususiyatlar” deb nomlangan. Biz muloqotni psixolingvistik qarashlarga asosan intrapersonal muloqot, interpersonal muloqot va kvazimuloqot kabi turlarga ajratishni ma’qul deb hisoblaymiz. Intrapersonal muloqot yordamida shaxs o’z ichki “men”i bilan suhbat quradi, o’z-o’ziga munosabat bildiradi, o’zini o’zi tanqid qiladi, maqtaydi yoxud koyiydi. Odatda, bu muloqot verballashmagan holda, ichki ovozda amalga oshiriladi. Intrapersonal muloqotda ham xabar uzatiladi va qabul qilinadi, bunday muloqotda ham adresant va adresat mavjud, lekin bunda so’zlovchi ham, tinglovchi ham shaxsning o’zi bo’ladi. Y.Solijonov XX asr 80-90-yillar o’zbek romanchiligiga xos badiiy nutq tiplarini tasniflar ekan, ichki nutq ham alohida nutq turi ekanini e’tirof etadi²⁷. “Kecha va kunduz” romanida Miryoqub obrazining o’zi bilan o’zi muloqot qilishi intrapersonal muloqotga misol bo’la oladi. Asar davomida Miryoqubning miyasida ikkita Miryoqub: biri tergovchi, ikkinchisi javobgar sifatida muloqot qiladi; tergovchi, qoralovchi Miryoqub javobgar Miryoqubning xatti-harakatlari uchun hisob so’raydi, vaziyatni oydinlashtirishini, qilmishlari uchun tushuntirish berishini talab qiladi.

Shuningdek, intrapersonal muloqot bir qarorga kelish, diqqatni jamlash, e’tiborini yechilishi zarur bo’lgan muammoga qaratish, o’zini tahlil qilish maqsadida amalga oshirilishi, ayrim hollarda boshqalar bilan muloqotga kirishishdan qo’rqish, o’z fikrlarini ochiq bayon eta olmaslik, xato gapirishdan hayiqish natijasi bo’lishi ham mumkin. Intrapersonal muloqot ham interpersonal muloqot kabi so’zlarni tanlash, jumla yaratish kabi lingvistik jarayonlarni talab qiladi. Hattoki, unda ichki ovozning intonatsion xususiyatlari ham namoyon bo’ladi. Bu ovoz tashqi jihatdan verbal tarzda namoyon bo’lmasa ham, insonning ichida balandroq, pastroq ifodalanishi, ton va melodika xususiyatlari ham namoyon bo’lishi mumkin. Masalan, inson o’zini o’zi maqtaganda “Eee, yashavor, bopladings! To’g’ri ish qilding!” kabi maqtovlarni ko’tariluvchi ton bilan ifoda qilishi mumkin. Demak, sog’lom insonlar ham o’zlariga o’zlari gapirishlari, o’zlari bilan muloqot qilishlari mumkin, bu esa doim ham patologik belgi bo’lavermaydi. Patologik shaklda esa gallyutsinatsiya hodisasi sifatida bemor insonlar o’z tasavvuridagi insonlar bilan suhbatlashadilar. Bu esa tasavvuriy dialog sifatida intrapersonal muloqot sanalmaydi.

Interpersonal muloqot boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishni anglatadi. Monolog, dialog, polilog kabi muloqot shakllarining barchasi interpersonal muloqotning turlari sanaladi. Bundan tashqari, muloqotning yana bir turi – kvazimuloqot ham mavjud. Uni ham turlarga ajratib o’rganish mumkin: muloqotchining real suhbatdosh bilan xayoliy dialogi, muloqotchining xayoliy suhbatdosh bilan tasavvuriy dialogi, muloqotchining Yaratgan bilan suhbat.

Uchinchi fasl “Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o’rni” deb nomlangan. Muloqot suhbatdoshlardan biri tomonidan boshqariladi. Bu muloqotning ijtimoiy xususiyatiga xos bo’lib, har qanday muloqotda boshqaruvchi bo’ladi va, odatda, muloqotni boshqaruvchi shaxs yoshi, mansabi yoki qandaydir ijtimoiy belgisiga ko’ra suhbatdoshdan balandroq mavqega ega bo’ladi. Muloqotning ijtimoiy tabiatiga, rasmiy qonun-qoidalarga ko’ra tergov jarayonini tergovchi boshqaradi, u savollar beradi, tergov qilinayotgan shaxs esa berilgan savollarga javob qaytaradi. “Tushda kechgan umrlar” asarida tergovchining Shahnoza bilan muloqotida bu yaqqol namoyon bo’ladi. Ayrim hollarda, psixolingvistik ta’sir asosida

²⁷ Солижонов Й. Бадий нутқ поэтикаси. – Фарғона, 2023. – Б. 4.

rollar almashib qolishi mumkin. Xuddi shu tergovchi Komissar bilan muloqot qilganda boshqaruvchilik qila olmay qoladi. Odatiga ko'ra, so'roq qiluvchiga *grajdanin* deb murojaat qilgan tergovchi birinchi savoldanoq dovdiratib qo'yuvchi javob oladi. Komissar o'zining kimligini bildirib qo'yish bilan muloqotda boshqaruvni qo'lga olishni boshlaydi, murojaat shakllarini o'zi istagandek qo'llashni talab qiladi:

– *Grajdanin G'aniyev! Yettinchi noyabrdan sakkizinchi noyabrga o'tar kechasi qayerda edingiz?*

– *Birinchidan, o'rtoq tergovchi, men "grajdanin G'aniyev" emas, iste'fodagi polkovnik, o'rtoq G'aniyevman! Marhamat qilib, o'rtoq polkovnik, deb murojaat etishingizni so'rayman. O'rtoq Komissar, desangiz ham roziman.*

Komissarning o'ziga ishonch bilan gapirishi, so'roq qiluvchidan mos murojaat shakllarini qo'llash orqali hurmatini joyiga qo'yishini talab qilishi muloqotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shahnoza gapini bo'lsa, bo'lmaslikni talab qilgan tergovchi Komissar bilan muloqotida bunday qila olmaydi, chunki birinchi savoldanoq muloqotda boshqaruvchi rolini qo'ldan boy beradi:

– *Biz sizni guvoh sifatida povestka bilan...*

– *Povestkangizni pishirib yeng. Xohlasam, generalning o'zi bilan gaplashib qo'ya qolaman!*

– *Marhum Shomatovni birinchi bo'lib siz...*

– *Ha-ya, men ko'rganman! Takror aytaman. Meni so'roqqa chaqirgan bo'lsangiz, adashasiz. Shunchaki kollega sifatida maslahat so'rasangiz, boshqa gap.*

– *Siz ko'rganingizda Shomatov o'lganmidi?*

– *Badani sovub bo'lgandi. Zamonaviy ekspertizangiz Shomatov qachon o'lganini aniqlay olmadimi?*

Komissarning o'zini tutishi, ishonch bilan gapirishi tergovchiga ruhiy-hissiy ta'sir o'tkazib, unda hadik, qo'rquv tuyg'ularini uyg'otadi. Albatta, bu muloqotda verbal vositalarni qo'llashga ham ta'sir qiladi. Shahnoza bilan muloqotda savolni faqat o'zi berishi mumkinligini eslatib qo'ygan tergovchi Komissardan qo'rqib, fikrini to'liq ifodalay ham olmaydi:

– *Savolni men...*

– *Yig'ishtiring demagogiyani! So'roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman, sistemangiz aynib ketgan. Tartib yo'q. Tartib bo'lsa, Shomatovni organga ishga olmas edinglar.*

– *Kechirasiz, grajdanin...o'rtoq Komissar...Bu gaplarni siz qayoqdan bilasiz?*

– *Men hamma narsani bilaman. Bu sohada ish boshlaganimda sizning otangiz ham tug'ilmagan edi...*

Bu holatda tergovchi faqat qo'rqqanidangina emas, Komissarning chindan ham bu sohada malakali, tajribali ekanini anglagani uchun ham boshqaruvchilik roldan ayriladi. Bu esa muloqotni boshqarishda sotsiologik va psixologik omillar birdek ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Muloqot davom etar ekan, tergovchi o'z-o'zidan Komissarga bo'ysunib, unga o'zi istagandek murojaat qiladi, tergov qilish emas, maslahat so'rashga majbur bo'ladi:

– *Ayting-chi, grajdanin, ...o'rtoq Komissar, sizning taxminingizcha, marhum Shomatov bilan ro'y bergan hodisada qaysi taxmin haqiqatga yaqinroq turadi: qotillikmi? Baxtsiz hodisami yo o'z joniga qasd qilishmi?*

– *Gapni shundan boshlash kerak edi!.. Hamma narsa bo‘lishi mumkin. menga qolsa, birortasi avval o‘ldirib, keyin derazadan tashlab yuborgan.*

Komissarning talabi bo‘yicha undan maslahat, fikr so‘rashga o‘tgan tergovchi muloqot tizginini butunlay boy berib qo‘yadi, rollar almashadi. Endi komissar unga savol berishga o‘tadi, tergovchi esa bu savollarga javob qaytaradi. O‘zini bilimdon ko‘rsatish, suhbatdoshni kamsitish, o‘z fikrini o‘tkazish orqali Komissar muloqotda boshqaruvchilikni qo‘lga oladi. Demak, psixologik ta’sir o‘tkazib, muloqotda rollarni almashtirib olish imkoni bor. Bu esa, albatta, lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Fikrlar tartibini bildiruvchi *birinchidan* kirish so‘zi bunday vositalardan asosiysi sanaladi. Aslida bu kirish so‘z narsalarning, fikrlarning tartibini bildirish uchun qo‘llansa ham, yuqoridagi kontekstda *birinchidan* kirish so‘zi tinglovchining e’tiborini o‘ziga jalb qilish, diqqatni qaratish maqsadida qo‘llangan. Adresatning diqqatini o‘ziga qaratish orqali esa muloqotda boshqaruvchilik rolini egallash ko‘zda tutilgan. *Takror aytaman* gapi ham *birinchidan* kirish so‘zi kabi suhbatdoshning diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun qo‘llangan vositalardan sanaladi. O‘ziga qanday murojaat shakllari qo‘llanilishini istasa, suhbatdoshiga ham xuddi shunday murojaat shakllarini qo‘llash ham suhbatni boshqarishda muhim sanaladi. Komissar avval suhbatdoshini *o‘rtoq tergovchi* deb atab, o‘ziga nisbatan ham *grajdanin G‘aniyev* emas, *o‘rtoq polkovnik* yoki *o‘rtoq Komissar* murojaat shakli qo‘llanilishini talab qiladi. Shuningdek, suhbatdoshning gapini bo‘lish natijasida adresatning gapi chala qolib, bildirilmoqchi bo‘lgan fikr verballashmay qoladi. Tergovchining *Biz sizni guvoh sifatida povestka bilan...*, *Marhum Shomatovni birinchi bo‘lib siz...*, *Savolni men...* gaplari chala qolgan. Shubhasiz, muloqotni boshqarishda prosodik vositalar ham ahamiyatlidir. O‘z fikrini qat’iy ohangda, ta’kid bilan aniq ifodalab berish orqali ham muloqotda boshqaruvni qo‘lga olish mumkin. Buyruq gaplardan foydalanish ham muloqotda boshqaruvchi roli uchun xos sanaladi. So‘roq qilinuvchi bo‘lsa-da, buyruq gaplarni qo‘llash orqali Komissar boshqaruvchi roliga o‘tadi: *Povestkangizni pishirib yeng. Yig‘ishtiring demagogiyani!* kabi. So‘roq gaplardan foydalanish orqali ham muloqotni boshqarish mumkin. Komissar tergovchiga savollar berish orqali ham muloqotni boshqaradi. *Zamonaviy ekspertizangiz Shomatov qachon o‘lganini aniqlay olmadimi? Demak, Shomatov o‘z joniga qasd qilgan, demoqchimi ekspertizangiz?* (O‘.Hoshimov, “Tushda kechgan umrlar”, 24-26-betlar).

To‘rtinchi fasl “Muloqotda o‘zaro muvofiqlikning psixolingvistik tahlili” deb nomlangan. Suhbatdoshlar muloqotda bir-birlariga moslashadilar: bunda ular tovushlar va so‘zlardan tortib sintaktik qurilish va ma’no ifodalarigacha bo‘lgan o‘xshash tasvirlardan foydalanishni boshlaydilar. Suhbatdoshlar bir-birlariga moslashishlari uchun, avvalo, vaziyat modeli mos kelishi kerak, ya’ni bir vaziyatga, holatga mos suhbat qurilishi zarur. Muvofiq vaziyat bo‘lmasa, muloqot ham shakllanmaydi. Vaziyatga mos xabar yuborilgach, suhbatdoshlar ongida semantik reprezentatsiya yuz beradi, bunda adresant yuborgan xabarni adresat yuboruvchi jo‘natganidek tushunishi, idrok qilishi muhim sanaladi. Yetkazilgan fikr adresat ongida noto‘g‘ri, nomuvofiq reprezentatsiya qilinishi suhbatning uzilishi, muloqotning samarasiz holda to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Muloqot paytida suhbatdoshga moslashgan holda o‘xshash sintaktik qurilmalar, bir xil leksik birliklar tanlanishi suhbatda o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi: *Zum*

o'tmay, hamma bir joyga to'planib, o'zaro tanishuv boshlandi. Sersoqol yigit rejissor ekan, boshliq sifatida hamkasblarini tanishtirdi:

– *Sasha Kardin – operator. Misha Fridental – ssenarist, Men – Edmund Pogasyan, – grupp boshlig'i...*

– *Saidqul Mardonov – jurnalist, deb ularning ohangida o'zimni tanitdim (Murod Muhammad Do'st, "Lolazor", 276-bet).*

Rus mehmonlari qo'llagan sintaktik qolip va ohangni tinglab, Saidqul Mardonov ham xuddi shu qolipdan foydalangan holda o'zini tanishtiradi. Bu orqali suhbatdoshlarga yaqinlik, ular bilan iliq munosabatlar o'rnatish nazarda tutiladi.

Dialogik muloqotda suhbatdoshning ovoz toni, tempiga moslashish ham ahamiyatlidir. Aytaylik, suhbatdosh shoshayotgan bo'lsa, u tez-tez gapirib, muddaosini bayon etishga harakat qiladi yoxud so'zlovchi jahl qilib, ovoz tonini balandlatib gapirsa, tinglovchi ham shunga yarasha ovozini balandlatib javob berishi tabiiy sanaladi. Ayrim hollarda muloqot faqat bir til doirasidagina yuz bermaydi, suhbatdosh adresatga mos ravishda tilni o'zgartirishi, suhbatdoshiga tanish tildan foydalanishi ham mumkin. Suhbatdoshga mavqe jihatdan teng kelishga intilish ham moslashishni bildiradi. Bunda ayrim hollarda sof adabiy tilda so'zlayotgan suhbatdoshga shunday javob qaytarish maqsadida shevalardan foydalanmay, adabiy tilda suhbatlashish nazarda tutilishi ham mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, Toshkentga kelgan viloyatliklarning Toshkent shevasidan foydalangan holda suhbatlashishga intilishlari ham mavqe jihatdan tenglashishga intilish sifatida baholanishi mumkin.

Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida yozuvchi, jurnalist Nazar Yaxshiboyev va rais o'rtasidagi qiziqarli suhbat keltirilgan. Soddagina, qishloqdan davolanishga kelgan rais Yaxshiboyevni ko'radi-yu, televizorda ko'rgan, asarlarini o'qigan yozuvchi shu ekanini bilib, yozuvchiga mos ravishda adabiy tilda, badiiy ifoda va qurilmalardan foydalangan holda gapira boshlaydi:

– *Uzr, domlajon... Bezovta qildim... Suratingizni ko'rib yurardik, lekin darrov taniyolmabman. Mana, diydoringiz nasib etdi.*

– *Qayerlardan so'raymiz?*

– *Uzoqdan, domlajon, janub tomonlardan. Ammo-lekin, bahavo joylar. Sizdek ulug' odamni ko'rmoq orzuyimiz edi, mana, orzuyimizga yetdik.*

Yaxshiboyev bunday kitobiy so'zlarni, jummalarni eshitib, ichida g'ijinadi. Oddiy to'pori insonning bunday jimjimador lisoniy birliklardan foydalanishi notabiiy eshitaladi. Aslida esa rais aynan Yaxshiboyevga moslashish uchun shunday qurilmalardan foydalanadi. Suhbatdosh sifatida bunday holat Yaxshiboyevga yoqmasa-da, suhbatni buzmaslik uchun indamaydi. U raisning nutqidagi xatoliklarni tahlil qiladi:

... *Sog'liqni o'ylab, bu taraflarga tashrif buyurdik.*

Ol-a, dedi Yaxshiboyev ichida, sen o'zing kimsanki, tashrif buyursang. Yo'q buniyam aybsitib bo'lmaydi, televizor-pelevizorga chiqadigan xotin shoirlardan o'rgangan chiqar.

Rais ongida kechadigan psixik jarayonlar yordamida mashhur yozuvchi bilan suhbatga tayyorlanar ekan, bu insonga tenglashish, unga mos gapirish, oldida uyalib qolmaslik uchun shunday muloqot qilishni afzal biladi. Ziyoli insonlar doim kitobiy tilda so'zlashadi, bu inson bilan men ham shunday muloqot qilishim kerak, degan

qarash, yozuvchilarni o'z shaxsiy qarashiga ko'ra idrok qilish natijasida aynan shu turdagi nutq yuzaga keladi.

Muloqot davom etar ekan, suhbatdoshlar o'zaro biroz yaqinlashgach, raisda hayajon yo'qolib, so'zlashuv uslubidan, hatto shevadan ham foydalanishni boshlaydi: *odamlarni bir pasda yig'aymiz, paxta teraydigan moshin va boshqalar: Rais dardini gapirgani sari jo'nlashib, tuppa-tuzuk odamga aylandi-qoldi* (Murod Muhammad Do'st, "Lolazor", 93-95-betlar).

Uchinchi bob "**Muloqotda bilish jarayonlari bilan bog'liq psixolingvistik holatlar**" deb nomlangan. Birinchi fasl "Muloqotda diqqatning psixolingvistik asoslari" deb atalgan. Diqqat jarayoni til bilan bog'liq mental jarayon sanaladi. Nutq yaratish, nutqni tinglab tushunish ham diqqat bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, polilog muloqotda suhbatdoshlardan aynan birining nutqini tinglash yoki barchalarining nutqiga e'tibor qaratish masalasi ham bor. Bunda diqqat aynan tanlangan biror suhbatdoshga yoki sochilgan tarzda barcha suhbatdoshlarga qaratilishi mumkin. Diqqatning ma'lum obyektga yoki suhbatdoshga qaratilganligi diqqatning selektivligi deb nomlanadi. Muloqot jarayonida suhbatdoshining so'zlarini diqqat bilan tinglash suhbatning qiziqarli kechayotganini, tinglovchining muloqotdan mamnunligini anglatadi. Suhbatdoshga e'tiborsizlik, uni diqqat bilan tinglamaslik esa muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, diqqat tinglash bilan uzviy bog'liq jarayon sanaladi. Bundan tashqari, tilshunoslar xorijiy tilda muloqot qilganda diqqat so'zlovchining ona tilisi va olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liq holda amalga oshirishini ta'kidlaydilar: "Diqqatni taqsimlash tizimi ona tilida so'zlashuvchilarning OLM tomonidan belgilanadi. Voqelikni aks ettirish va tavsiflash uchun lingvistik vositalarni tanlashning o'zi diqqatni taqsimlash tizimi doirasida fon va diqqat o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. Turli tillarda diqqat markazlari bir xil bo'lmasligi mumkin. Diqqat markazini bir tildan boshqa tilga o'tkazish tushunishda qiyinchiliklar tug'dirishi va muloqot samaradorligini kamaytirishi mumkin, bu, ayniqsa, bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda va chet tillarini o'rgatishda e'tiborga olinishi kerak"²⁸.

Muloqotda bilish jarayonlarining barchasi odatdagidek yuzaga chiqib, idrok, xotira, tafakkur, xayol, diqqat kabi jarayonlar o'z funksiyasini to'la-to'kis bajargan holda ham suhbatdoshlar muloqotda uzilishlarga yo'l qo'yishi, atay suhbatni to'xtatishi yoki suhbat mavzusini o'zgartirishga harakat qilishlari mumkin. Suhbat mavzusini atay burish orqali suhbatdosh diqqatini boshqa narsaga qaratish turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, suhbatdosh yoqimsiz bo'lganda:

– Mayli, – dedi sekin. – Xudoga soldim. Komissar kuldi. Kulishi g'alati. Xuddi odamni mayna qilgandek "xex-xex-xex", deydi.

– Xudoning sendan boshqa ishi yo'q! Falonchi bandamning arzi holini eshitaman, deb ko'zi uchib turibdi.

"E-e! Tezroq daf bo'lsang-chi! Sen bilan gaplashib yurakni qon qilgandan ko'ra..." Qurbonoy xola atay gapni boshqa yoqqa burdi:

– Sutga ketyapsizmi?

– Borib keldim. Bugun sut bo'lmas ekan. Do'kon kecha bayramda ishlagani uchun bugun oddix qipti (O'tkir Hoshimov, "Tushda kechgan umrlar", 8-bet).

²⁸ Петров С. Система распределения внимания как фактор репрезентации языковой картины мира при овладении иностранным языком// <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-raspredeleniya-vnimaniya-kak-faktor-reprezentatsii-yazykovoy-kartiny-mira-pri-ovladienii-inostrannym-yazykom> (murojaat sanasi: 8.06.2023)

Qurbonoy Komissarni juda yomon ko‘radi, yomon ko‘rsa ham, muloqot qilishga majbur, chunki undan qo‘rqadi. Shu sababdan ham suhbatni tezroq yakunlash, u bilan ko‘p gaplashmaslik uchun suhbat mavzusini boshqa tomonga buradi, komissarning diqqatini sut bor-yo‘qligiga qaratadi.

Muloqot mavzusining yoqimsizligi sabab yoki keskin vaziyatni yumshatish maqsadida suhbat mavzusini burish kabilar ham suhbatdosh diqqatini boshqa narsaga qaratish maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchi fasl “Muloqotning idrok bilan bog‘liq psixolingvistik jihatlar” deb nomlangan. Idrok ong bilan bog‘liq holda obyektiv olamdan sezgi a‘zolari yordamida qabul qilingan ma‘lumotlarni o‘zlashtirish va aks ettirishdir. Bir predmet, hodisa haqida sezgi a‘zolari orqali barcha ma‘lumotlar ongga qabul qilinadi, ular yaxlit holda jamlanib, ongda o‘zlashtirilishi, so‘ngra nutqda, faoliyatda aks etishi idrok jarayonining asosini tashkil qiladi. Bu jarayonning murakkabligi aks ettirishning subyektivligi bilan baholanadi, bir xil predmet, vaziyat shaxslar tomonidan turlicha aks ettirilishi – talqin qilinishi mumkin. Binobarin, idrok jarayonida sezgi, diqqat, xotira, tafakkur kabi psixologik jarayonlar, shaxsning tajribasi, hatto hissiyotlari ham ishtirok etishi mumkin. So‘zlovchi tomonidan bildirilgan fikr har doim ham tinglovchi tomonidan so‘zlovchi istaganidek tushunilmaydi. So‘zlovchi o‘z tafakkuri va dunyoqarashidan kelib chiqib gapirsa, tinglovchi ham aytilgan xabarni o‘z dunyoqarashi, bilim saviyasi va tafakkuridan kelib chiqib anglaydi va unga munosabat bildiradi. Idrok murakkab psixik jarayon sanaladi. Idrokka xos hodisalardan biri appersepsiya hodisasidir. Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o‘zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya‘ni ular aynan bir xil narsani o‘zining bilimi, saviyasi, nuqtayi nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar²⁹.

“Tushda kechgan umrlar” asarida rus millatiga mansub Grisha Toshkentga ko‘chib kelgach, o‘zbeklar udumlarini bilmagani, bu millat haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lgani sababli vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaydi. Bunday holat “ mantiqiy to‘siqlar” termini bilan nomlanadi³⁰.

...Ehtiyotkorlik bilan kalitni buradi. Ostonada boshiga do‘ppi, egniga ko‘k to‘n kiygan qariya turar edi. Qo‘lida qappaygan sellofan xalta. Qiziq, Grishaning qo‘lidagi boltaga qayrilib ham qaramadi.

– Xo‘sh? – dedi Grisha “gapni cho‘zma!” degan ma‘noda.

– Gap bunday, qo‘shni... – Qariya vazminlik bilan muqaddimani uzoqdan boshladi. – Men Ahmadaliyevman. Bugungi to‘ying egasi. O‘g‘limni uylantirdim.

Qariya muloqot davomida Grishani to‘yga taklif qilib chiqsa, Grisha uyda yo‘q ekanligi, o‘zining rus maktabda o‘zbek tilidan dars bergani, farzandining to‘yi uchun bir umr ter to‘kib mehnat qilgani, bolalarni internatsionalizm ruhida tarbiyalagani, to‘y kuni Grishaning noto‘g‘ri ish qilganini tushuntirishga harakat qiladi. Keyin bir millatning udumlarini hurmat qilish zarurligini uqtirishga urinadi.

– Maqsad! – dedi Grisha tahdid bilan.

²⁹ Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009. – B.157.

³⁰ Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B.63.

– *Maqsad shuki, xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang!* – *Qariya qo‘lidagi sellofan qopchasini uzatdi. – Bu – sizning nasibangiz!*

Grisha esankirab qoldi.

– *Pora, deng!* – *dedi hushini to‘plab. – Nima, meni sotib olmoqchimisiz?*

Qariya allanechuk osoyishta kuldi.

– *O‘zbekda qo‘shnining haqi degan gap bor. Siz to‘yda qatnashmadingiz.*

O‘zbeklarda to‘ylarga qo‘shnini, albatta, taklif qilish zarurligi, to‘yga qatnasha olmasa, unga nasiba olib kirilishi odati mavjudligini rus millatiga mansub Grisha tushunmaydi, chunki u bundan bexabar edi. Aksincha, Grisha o‘zining o‘zbeklar haqidagi tasavvurlariga asoslanib, qo‘shnisi olib chiqqan narsani pora deb o‘ylaydi. Grishaning tasavvuriga ko‘ra, o‘zbeklarning barchasi poraxo‘r, ular pora berib ish bitirishni yaxshi bilishadi, butun mamlakatda “o‘zbeklar ishi” ovoza bo‘lgan, O‘zbekistonni poraxo‘rlardan qutqarish kerak. Ana shunday yanglish tasavvurlariga asoslangan holda Grisha qo‘shnisining o‘zbekona udumlarga amal qilishini pora berish sifatida tushunadi. Bu holat esa muloqotda verballashib, Grisha tomonidan *Pora, deng! Nima, meni sotib olmoqchimisiz?* gaplarining yuzaga chiqishi uchun asos vazifasini bajaradi.

Biror millat, uning madaniyati haqida aniq va to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lmaslik oqibatida Grisha berilgan hadyani pora sifatida tushungan bo‘lsa, ko‘p yillardan buyon o‘zbek millati ichida yashab kelayotgani uchun Klava xola bu holatni bag‘rikenglik deb tushunadi. Appersepsiya hodisasi idrok jarayonida hodisalarning mohiyatini, lisoniy birliklarning aniq ma‘nosini ilg‘ashda shu jihatdan muhim sanaladi. Bu o‘rinda Klava xolada “madaniy moslashuv” jarayoni ham sodir bo‘lganini e‘tirof etish zarur. “Madaniy moslashuv. Muayyan etnik madaniyat yoki etnosga mansub til sohiblarining ko‘p hollarda o‘z joyini o‘zgartirishi natijasida o‘zga muhitning ijtimoiy, etnik, madaniy, lisoniy shart-sharoitlariga moslashuvi. Bunda madaniy moslashuv oqibati sifatida individual yoki jamoaviy bilingvizm, nutqiy xulq-atvorning yangi ko‘rinishlari, til almashishi, ikki tomonlama madaniy yoki lisoniy ong shakllanishi hodisalari yuzaga kelishi mumkin”³¹. Klava xolada madaniy moslashuv yuzaga kelgani sababli u o‘zbeklarga xos udumlarni yaxshi tushunadi, ular bilan muloqotda qiyinchiliklarga uchramaydi. Grishada esa, aksincha, madaniy moslashuv emas, kommunikativ to‘siqning bir turi bo‘lgan madaniy to‘siqlar bo‘lgani tufayli ham unda idrok jarayonining qiyinlashuvi, vaziyatni to‘g‘ri anglay olmaslik holati yuzaga keladi.

Muloqotda ehtimoliy prognozlash ham muhim. Bunda appersepsiyaga, ya‘ni saviya, dunyoqarash, oldingi bilim, tajribaga asoslangan holatda muloqotning qanday kechishini oldindan taxmin qilish nazarda tutiladi³². Ehtimoliy prognozlash muloqot jarayonida suhbatdoshning qanday lisoniy birliklardan foydalanishi, suhbatni qanday olib borishi, qanday yakunlashi haqida ma‘lum tasavvurlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ba‘zi insonlarga “xos” so‘z va iboralar mavjud bo‘lib, ularning nima deyishi, qanday lisoniy vositalarni qo‘llashlarini oldindan taxmin qilish mumkin. Bu ehtimoliy prognozlashning bir ko‘rinishi sanaladi.

³¹ Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B. 61.

³² Белянин В. Психоллингвистика. Учебник. – М.: ФЛИНТА, 2016. – С.151-154.

Trubkani joyiga qo'yib, yana o'ringa cho'zildi. Zohidning kelishiga yana bir yarim soat bor. Bir yarim soatdan keyin jilmayib kirib keladiki, nima bo'ldi, Nazar aka, burga tepdimi?

Zohid xuddi shu iborani ishlatishi tayin. Sababki, u gapirganda Oshnoga taqlid qiladi... (Murod Muhammad Do'st, "Lolazor", 488-bet).

Yaxshiboyev Zohidning kelganida nimalar deyishini taxmin qilib, ehtimoliy prognozlaydi. Asar davomida uning prognozi to'g'ri chiqadi. Zohid aynan *burga tepdimi?* deb so'ramasa ham, *burga tepganga hech o'xshamaysiz*, deb aytadi.

Tagma'noni ilg'amaslik ham bevosita idrok jarayoni bilan bog'liq bo'lib, muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi:

– *Ha, kel, bolam, tinchlikmi? Kech kirganda kepsan? Yo yana topshiriq keldimi?*

– *Ha, keldi. Paxtaga, ota!*

– *Boshlandimi?*

– *Boshlandi, ota! Ertaga mahalla oqsoqollarini to'plab berarkanmiz, raykomning o'zi kelib majlis o'tkazarkan. Aftidan, tepadan buyruq kelgan-ov. Har kuni bo'lmasa ham, haftada bir kun dalaga oqsoqollarni olib chiqadiganga o'xshaymiz, ota.*

– *Shunga yetib keldikmi, Avazbek?..*

– *Biz kichkina odammiz. Topshiriqni bajaramiz, ota.*

– *Bek degan qanday ulug' oting bor-u, yana kichkina odammiz, deysan! Bu yog'i ham xo'jako'rsinga-da, a?*

– *Tushunmadim, Po'lat ota, – qo'lini ko'ksiga qo'yib jilmaydi Avazbek.*

– *Ismingni aytaman, uniyam ota-onalarimiz xo'jako'rsinga qo'yishganmi, deb. Hammamizning otimizda bek, boy, jon, xo'ja bor-u, o'zimiz qul bo'lib yurganimizni qara!*

Avazbek gap nima haqida ketayotganini chamalab ko'rarkan, peshonasini tirishtirdi. Keyin topolmadi shekilli, yana beg'ubor iljaydi (Ulug'bek Hamdam, "Ota", 150-bet).

Bu muloqotda Po'lat ota Avazbekning ismidagi *bek* erkalash qo'shimchasi bilan birga, o'zbek xalqi nomidagi *bek* qismini ham nazarda tutgan. O'zbek millati nomida *bek* bo'lsa ham, qulday mehnat qilib, paxta yetishtirib, ruslarga qaram bo'lib yashayotgani tagma'no vositasida ifodalangan. Biroq tinglovchi buni tushuna olmaydi, chunki u tagma'noning mohiyatini anglay olmaydi.

Askiya, kinoya, terminlar, argo va jargonlar, shevaga oid hamda boshqa tildan olingan so'zlar ham idrok jarayonini qiyinlashtiruvchi lisoniy vositalardandir.

Uchinchi fasl "Xotiraning muloqotga ta'siri" deb nomlangan. Muloqot jarayonini xotira ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Muloqot paytida qanday lisoniy birliklardan foydalanishimizdan tortib, muloqot ishtirokchilariga qanday javob qaytarishgacha – barchasi xotiraning funksional xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'lumki, xorijiy tillarni o'zlashtirishda so'zlarni yodlash, esda saqlab qolish va qayta muloqotda qo'llay olish muhim sanaladi. Xuddi shunday jarayon nafaqat o'rganilayotgan boshqa til bilan, balki ona tili bilan ham sodir bo'ladi. Chaqaloq dunyoni anglar ekan, asta-sekin so'zlarni o'rgana boradi, keyin esa bu so'zlarni o'zi ishlab chiqarishni odat qiladi. Ishlab chiqarish deganda so'zlarni talaffuz qilish, kerak joyda qo'llay olish nazarda tutiladi. Bularning barchasi xotira bilan bog'liq holda amalga oshadi. Inson ulg'aygani sari uning so'z boyligi ham kengayib boradi, lisoniy

vositalarning uslubiy, pragmatik xususiyatlarini farqlay oladigan darajaga erishadi. Xotira faqatgina soʻzlarni, lisoniy qoliplarni esda saqlab qolish mexanizmigina emas. Muloqotda kerakli soʻzni qoʻllay olishda soʻzlarni shunchaki miyadagi “ombor”dan tortib olishning oʻzi kamlik qiladi. Soʻzlovchi nutq vaziyatiga asoslanib baholash jarayonini amalga oshirgandan keyingina kerakli lisoniy vositani tanlaydi va qoʻllaydi. Bu esa tafakkur, idrok, diqqat va boshqa hodisalarning ham xotira bilan birgalikda ishlashini talab qiladi. Koʻp hollarda bu jarayon avtomatik tarzda, juda tez sodir boʻlgani uchun oddiy inson oʻz ongida bunday murakkab jarayonlar kechayotganini tushuna olmaydi.

Xotiraning sustligi yoki toʻliq va yaxshi ishlamasligi muloqotning samarasiz kechishiga olib keladi. Ayrim hollarda esa xotirasi yoʻqolgan inson umuman hech kim bilan muloqot qila olmay qoladi. Shu sababdan ham xotira va uning inson muloqotiga taʼsiri bugungi psixolingvistikaning dolzarb ahamiyatga ega mavzularidan boʻlib qolmoqda. Zulfiya Qurolboy qizining “Kuygan shahar” hikoyasida bosh qahramon – kampir xotirasini yoʻqotgan boʻlib, oʻzini bir necha yillar oldingi holatida tasavvur qiladi. Kampir yoshligida bozorda ishlagan, yosh bolalarini uyda yolgʻiz tashlab ketardi. Bir kuni ayol bozordaligida uning uyi yonib ketib, farzandlari vafot etadi, faqat bitta oʻgʻli tirik qoladi. Bundan ruhiy zarba olgan ayol xotirasini yoʻqotadi, natijada oradan yillar oʻtib, oʻgʻli uylanib, nabiralari bor boʻlsa ham, ayol oʻzini oʻsha – uyi yongan paytda yashayapman, deb xayol qiladi. Kampir odamlarni ham oʻzlarining ismlari bilan chaqirmaydi, boshqalar bilan chalkashtirib yuboradi, bu esa kampir bilan hech kimning gaplashgisi kelmasligiga, uni masxara qilishlariga sabab boʻladi:

Biroq kampir qorovul bilan soʻrashmasdan oʻtmaydi.

– *Yaxshi yuribsanmi, Boltavoy? Bola-chaqang omonmi?*

– *Ha, omon, omon. Omon boʻlmay nima... – yoqtirmayroq javob berdi qorovul.*

– *Faqat siz qachon mening ismim Boltavoy emasligiga ahamiyat berarkansiz?*

Aslida qorovulning ismi Boltavoy emas, lekin kampir uni shunday chaqiradi, bu esa qorovulda norozilik tugʻdiradi. Kampirning ismlarni adashtirib gapirishi uning oʻtmishda yashayotganidan. Shu sababdan ham odamlarni oʻsha davrda bor boʻlgan, kampir bilan birga yashagan, birga ishlagan insonlarning ismlari bilan chaqiradi. Bundan bexabar insonlar esa kampir bilan tortishishga urinib, unga haqiqatni singdirmoqchi boʻlishadi.

Xotira kognitiv va lisoniy assotsiatsiyalar bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Mos lisoniy birliklarni tanlash, ularni nutqda qoʻllash oʻsha soʻzlarga xos assotsiatsiyalar bilan bogʻliq, chunki soʻzlarning, maʼlum tushunchalarning assotsiatsiyalari ham xotira bilan bogʻliqdir. “Kuygan shahar” hikoyasidagi kampir xotirasini yoʻqotgan, hamma voqealarni unutgan boʻlsa ham, “jinnixona” degan soʻzni eshitishi bilan popugi pasayib qoladi. Demak, kampir yigirma yillik xotirasini yoʻqotgan boʻlsa ham, ongining qayeridadir, xotirasining qaysidir burchagida jinnixona va u bilan bogʻliq qoʻrqinchli nimalardir saqlanib qolgan. Shu sababdan gʻazablangan, urishishga chogʻlangan paytida “jinnixona” soʻzini eshitsa, unda “toʻpolon qilsam, urish chiqarsam, jinnixonaga olib borishadi” qabilidagi assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Oq xalatli vrachni koʻrsa ham, uni jinnixonaga olib ketishlaridan qoʻrqib, kampir oʻzini yoʻqotib qoʻyadi:

Ammo kampir hadeganda oʻziga kelavermagach, doʻxtir chaqirishdi.

Uni koʻrdi-yu kampir yana shaytonlay boshladi:

– Voy-dod! Anavi alvasti sochimni olgani keldi. Kiyimlarimni yechib, kalta xalat-ishton kiydiradi. Meni yashirib qo'yinglar! U meni opketib qoladi! Tezroq yashir meni, bekit. Ko'zga ko'rinmaydigan yerga bekit! Qariganda sharmanda bo'lmayin... – kampir yostiqlik bilan boshini bekitdi.

Bir paytlar kampirning jinnixonaga olib borilganini uning o'g'li aytib beradi: – Onamni bir marta kasalxonaga yotqizishgan, – javob berdi yigit. – O'shanda sochini olmoqchi bo'lishgan... va yana... Men u vaqtlarda yosh bola edim... Shundan beri onam kasalxonadan qo'rqadi.

Shuningdek, kampir o'z nutqida esi past, aqldan ozgan jumllarini ko'p qo'llaydi. Bu ham kampirga nisbatan ishlatilgan haqoratli so'zlar xotirasining qaysidir qismida saqlanib qolgani, keyinchalik nutqiga ko'chganidan dalolat beradi. Xotira idrok bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xotirasini yo'qotgan inson idrok qilishga, vaziyatni baholashga qiynaladi:

Kampir qo'rqib ketdi. Qarshisidagi yigitga qo'rqinch ichida bir necha soniya tikilib turdi. Nimadir o'z maromidan chetga oqqanidan yigitning qattiq jahli chiqayotganini ilg'aganday bo'ldi, ammo nima? Kampir zo'r berib o'ylamoqchi bo'ldi, lekin hech narsani anglay olmayotganidan qiynalib, yuragi siqilib ketdi.

Demak, xotira idrok, tafakkur, hissiyotlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi va xotiradagi buzilishlar nutqqa, insonning samarali muloqot qilishiga ta'sir o'tkazadi.

To'rtinchi bob **“Muloqotning shaxs individual xususiyatlari va hissiyot bilan bog'liq psixologik tahlili”** deb nomlangan. Birinchi fasl **“Shaxs individual psixologik xususiyatlarining muloqotga ta'siri”** deb nomlangan. Kanadalik psixolog va psixoterapevt E.Bern tranzaksional tahlil metodiga asos solgan olim sanaladi³³. Bu nazariyaga ko'ra, har bir inson muloqotda uch xil “men” turlaridan birini tanlaydi: bola, ota-ona, voyaga yetgan shaxs “men”i.

Muloqotda bola “men”i so'zlovchining bolalik xotiralari, bolalikdagi qaysidir holati, bolalikda olgan “jarohatlari” asosida yuzaga chiqadi. Muloqotda hissiy reaksiyalarning tezligi, qaysarlik, yig'loqilik kabi holatlar bola “men”i asosida voqelanadi. Shuningdek, ayrim insonlarga xos ruhiy holatlar ularda bola “men”i yetakchilik qilishini ko'rsatadi. Bunday shaxslar atay bola “men”ida so'zlamaydilar, balki ularning xarakter-xususiyatlari tabiiy ravishda bola “men”ini namoyon qiladi. Bu esa ularning nutqida o'z aksini topadi.

Ota-ona “men”i muloqotda kimnidir boshqarish, ularga buyruq berish, tinglovchini nazorat qilish istagi mavjud bo'lganda ro'yobga chiqadi. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidagi Qalandarov nutqida ota-ona “men”ini ko'rishimiz mumkin: *“Men kolxozni opichlab katta qilganman! Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini men bilaman! Akademiyadan keladigan mo'ysafid olimlar ham avval menga uchraydi, men bilan suhbatlashib, undan keyin xo'jalikni ko'radi. Kolxoz to'g'risida kitob yozganman”* (A.Qahhor, “Sinchalak”, 50-bet).

Qalandarov o'zini kolxozning otasidek tutadi, kolxozni *“opichlab katta qilgan”*ini ta'kidlaydi, ota-ona farzandini yaxshi bilganidek, Qalandarov ham *“kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini”* biladi. O'zining kolxozda asosiy shaxs ekani, avval u bilan suhbatlashish muhimligiga urg'u beradi. Kolxoz a'zolariga o'z farzandlaridek munosabatda bo'lishi Qalandarovning “ota-ona” rolidagi ekanligini ko'rsatadi.

³³ <https://ericberne.com/transactional-analysis/> (murojaat sanasi: 09.01.2024)

“Voyaga yetgan shaxs” rovida muloqotga kirishilganda esa muloqot jarayonida sog‘lom muhit yuzaga keladi, muloqot ishtirokchilari bir-birlarini hurmat qilgan holda, muloqot xulqi qoidalariga amal qilib, o‘zaro tushunish va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan tarzda suhbat quradilar. Bu esa, albatta, muloqotning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

Psixologik manbalarda kishilar muloqotga kirishuvchan yoki kirishuvchan emasligiga ko‘ra ekstrovert va introvert suhbatdoshlarga ajratiladi. Ekstrovert kishilar muloqotga kirishuvchan, so‘zamol bo‘lganlari sababli ham oson va muvaffaqiyatli muloqot olib bora oladilar, zaruriy lisoniy birliklarni tanlab qo‘llay oladilar, ekstrovertlar uchun muloqotga kirishish yoqimli mashg‘ulot sanaladi. Introvertlar esa, aksincha, kishilar bilan muloqotga kirishishni istamaydilar, muloqotni oson olib keta olmaydilar, chunki ularning tabiatiga ko‘ra kishilar bilan muloqot qilishdan ko‘ra yolg‘iz qolish qulayroq sanaladi. Ko‘p hollarda introvert insonlar mulozamat qilishni bilmaydilar, shu sababdan ham muloqot xulqiga rioya qilmaganlikda ayblanishlari ham mumkin. Biroq suhbatdoshlar aynan shu holatga e‘tiborli bo‘lishlari, introvert suhbatdoshni malomat qilmasliklari kerak. “Sinchalak” qissasidagi Saidaning otasi introvert suhbatdosh hisoblanadi: *Chol o‘shandan beri shu yerda. U hech kimqa so‘z qotmaydi, birov bir nimani so‘rasa, yerqa qarab qisqa javob beradi; uy ishiqa qarashadi, ovqatini alohida yeydi, ko‘chaqa kamdan-kam chiqadi, bo‘sh vaqtida mana shu arqon karavotda devorqa qarab chordana qurib o‘tiradi-yu, tovush chiqarmay, o‘sha g‘amgin kuy maqomiga tebranaveradi* (Abdulla Qahhor, “Sinchalak”, 14-bet).

Ikkinchi fasl “Muloqotning hissiy-ruhiy holatlar bilan bog‘liq psixolingvistik tahlili” deb nomlangan. Muloqotda hissiyotning aks etishida so‘zlovchining borliqqa, suhbatdoshiga, vaziyatga munosabati muhim ahamiyatga ega.

1. So‘zlovchining borliqqa munosabati. “Oydinda yurgan odamlar” asarida bosh qahramon – Qoplon o‘zining farzandsizligidan uyalib, doimiy ravishda insonlar bilan muloqotda ular bilan bahslashmaslikka, suhbatdoshga yon bosishga harakat qiladi. Vaqti kelib, kim bilandir tortishib qolsa, farzandsizligini yuziga solishlari mumkinligini bilgani holda muloqotda doimiy ko‘nikuvchi rolini bajaradi. Bu esa Qoplonning ichki psixologik holati bilan bog‘liq: *Tokaygacha odamlar qoboq-tumshug‘iga qarab kun ko‘radi? Yo shunday o‘tib keta beradimi? Umri oxirigachayay? Og‘ziga kuchi yetgan bor, yetmagan bor. Bir kun emas-bir kun, birov bilan gapi chap tushadi. Yuziga aytadi... Shunda nima degan odam bo‘ladi? Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi! Mana, necha yilkim, mung‘ayib kun ko‘radi. El-yurt bilan muloqot qilsa, gap ketishiga qarab turadi. Birov bir bema‘ni gap gapirsa:*

– *Sizniki ma‘qul, – deya bosh irg‘aydi. Bordi-yu, shu gapni boshqa birov inkor etsa:*

– *Sizniki-da ma‘qul, – deydi. Inkor etmaydi, e‘tiroz - da bildirmaydi* (Tog‘ay Murod, “Oydinda yurgan odamlar”, 21-bet).

Bunda so‘zlovchining butun borliqqa munosabati uning “Sizniki ma‘qul” deyishida namoyon bo‘ladi. Qoplon uchun suhbatdoshning kimligi ham, suhbat mavzusi ham, vaziyat ham ahamiyatga ega emas. Ruhiy holatiga ko‘ra, Qoplon hammaning fikrini ma‘qullashi kerak, bu esa uning muloqotida bir xil lisoniy vositalarning qo‘llanilishiga, muloqotda ma‘lum qoliplarga amal qilinishiga olib keladi. Qoplonning “kamchiligi” – farzandsizligi uni shu ko‘yga solgan. Farzandsizligidan uyalgani uchun kimgadir keskin gapirib yuborishdan o‘zini tiyish

maqsadida *Sizniki ma'qul* deb o'zining borliqqa munosabatini aks ettirishi uning ruhiy holati, ichki kechinmalari bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

2. So'zlovchining suhbatdoshga munosabati. Muloqotda suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlari ham hissiyotning aks etishida ahamiyatlidir. Suhbatdoshlar o'zaro yaqin bo'lsalar, ijobiy ma'noli lisoniy ifodalar, o'zaro salbiy munosabatdagi suhbatdoshlar o'rtasida salbiy ma'noli lisoniy ifodalar keng qo'llanadi. Chunki muloqotda suhbatdoshning kim ekani alohida ahamiyatli bo'lib, o'zaro yaqinlik darajasiga ko'ra lisoniy birliklar tanlanadi va muloqotga kirishiladi.

3. So'zlovchining vaziyatga munosabati. Suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabat mavjud bo'lsa ham, vaziyat ta'sirida ijobiy lisoniy ifodalar tanlanishi mumkin. Aytaylik, ikki qo'shni bir-birini juda yomon ko'radi, yuzko'rmas bo'lib ketishgan. Lekin agar shu qo'shnilardan birining yaqini vafot etsa, narigi qo'shni, albatta, kiradi va dushman bo'lsa ham, qo'shnisiga *Sizga sabr tilayman. Alloh sabr bersin. Ko'rgilik ekan-da. Hammasi yaxshi bo'ladi* kabi ijobiy ma'noga ega, ko'tarinki kayfiyat baxsh etadigan lisoniy birliklardan foydalangan holda muloqotga kirishadi. Ushbu holatda suhbatdoshiga nisbatan munosabat inobatga olinadigan bo'lsa, *Yaxshi bo'libdi, onang o'lganidan juda xursand bo'ldim, battar bo'l qabilidagi nutq yuzaga chiqishi mumkin bo'ladi*. O'zbek muloqot xulqi bunday vaziyatda salbiy ma'noli til birliklari bilan muloqotga kirishishni cheklaydi, vaziyat ijobiy ma'noli til birliklarini tanlashni talab etadi.

